

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 334.75(575.1)

Ruziyeva Maftuna

**Modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotda
tarkibiy o'zgarishlar**

5A230110 – “Mehnat iqtisodiyoti”

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: iqtisod fanlari doktori,
professor R.A. Seytmuratov

Samarqand - 2014

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I- BOB. TARKIBIY O'ZGARISHLARNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	9
1.1. Modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uni tadqiq etishning nazariy masalalari.....	9
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar.....	18
1.3. Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida aholi daromadlarning tabaqalashuvi.....	27
II- BOB. IQTISODIY O'SISHNING O'BEKISTONDAGI SHART-SHAROITLARI.....	27
2.1. Investitsiyalarni jalb etishning tarkibiy o'zgarishlar uchun ahamiyati...	27
2.2. Tarkibiy o'zgarishlardagi davlatning investitsiya siyosati va uning roli	39
2.3. Investitsiyalarning moliyaviy manbalar tarkibi va uning o'zgarishi.....	42
2.4. Sarmoyalar jarayonlarni boshqarishda Davlat dasturlarning ahamiyati va chora-tadbirlari.....	47
III- BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNING STRATEGIYASI VA AMALGA OSIRISH MEXANIZMI.....	57
3.1. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omillari.....	57
3.2. Mintaqalarni rivojlantirish va sanoati tarmoq tarkibining investitsiyaviy-innovatsion strategiyasi.....	64
3.3. Iqtisodiy o'sishda patent, litsenziya va sertifikatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	68
XULOSA	88
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	91

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotimizda muhim tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda tarkibiy siyosatning amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotining jahondagi rivojlangan davlatlar qatorida o'sishining asosiy shartlaridan biridir. Shuning uchun respublikada iqtisodiy islohotlar, modernizatsiyalash va yangilanishlar dasturini amalga oshirishning dastlabki kunlaridan boshlab, asosiy e'tibor iqtisodiyot tuzilmasini muayyan ravishda yaxshilash, uning bir tomonlama xomashyo bazasi sifatidagi yo'nalishidan voz kechishga qaratildi va hozirgi kundagi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'zni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda"¹.

Ushbu vazifalarni bajarishda tarkibiy o'zgarishlarning yo'llari va turli shakllarini rivojlantirish birinchi darajali ahamiyatga ega.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Bu farovonlikka erishish yo'llaridan biri tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Chunki

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi", 2014 yil 18 yanvar.

tadbirkorlikning rivojlanishi, uning ommaviy tus olishi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, ya'ni aholi farovonligini ta'minlash va ish bilan bandlik masalalarini hal qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, ushbu sohani taraqqiy ettirish respublika hukumatining doimo diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida ushbu dolzarb vazifani hal qilish borasida salmoqli, ijobiy natijalarga erishildi. Ammo, hozirgi kunda ham modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgarishlarni rivojlantirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish va shu asosda aholi farovonligini oshirish masalalari o'z echimini kutayotgan muammolardandir.

Tadqiqotning dolzarbligi respublikada tarkibiy o'zgarishlarini yanada chuqurlashtirish yo'llarini topish va rivojlantirish masalasi yetarlicha ilmiy tadqiq etilmaganligi va bu borada bir qator muammolar mavjud ekanligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya ishi Samarqand davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan uzviy bog'liq va tegishli rejalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Shuningdek, mazkur ish respublikamizda olib borilayotgan fundamental va davlat ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotda ohirgi yillarda "tarkibiy o'zgarishlar", "tarkibiy islohotlar" tushunchalarini tadqiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Tarkibiy islohotlar deganda odatda, iqtisodiyotda turli sektorlar o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi, yangi soha va tarmoqlarning rivojlanishi va yirik korxonalar darajasida tashkiliy-huquqiy sohada qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qarorlarning o'zgarishi tushuniladi.

O'zbekistonda amalgam oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati shundaki, ular mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, innovatsiya va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun sharoit yaratishi kerak.

O'zbekistonda O'lmasov A., G'ulomov S.S., Saidov K.S., Seytmuratov R.A., Vaxobov A.V., Razikova G.Kh. kabilarning ilmiy ishlarida tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashning shakllanishi va rivojlanishi, amalga oshirish yo'llarining tegishli jihatlari yoritilgan. Ammo amalga oshirilgan ilmiy ishlarda hozirgi davrida tarkibiy o'zgarishlarni shakllantirish va rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishi respublikamiz xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarkibiy o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini institutsional tarzda, o'zaro bog'liqlikda o'rganishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tarkibiy o'zgarishlarning ilmiy-nazariy asoslar, ustuvor yo'nalishlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida "tarkibiy o'zgarishlar", "diversifikatsiyalash", "modernizatsiyalash" tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini yangicha bozor talablaridan kelib chiqqan holda tadqiq qilish;
- modernizatsiyalash sharoitida tarkibiy o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va bozor tizimidagi o'rnini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash;
- tarkibiy o'zgarishlarini iqtisodiy munosabatlar tizimida makro- va mikroiqtisodiyotning sub`ekti ekanligini hamda ularning iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini va ahamiyatini ochib berish;
- bozor munosabatlari sharoitida, mavjud qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tarkibiy o'zgarishlarini chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- tarkibiy o'zgarishlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy yangilashda tutgan o'rnini tahlil qilish va ularni davom ettirish yo'llarini ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob`ekti.** Mamlakatimizning iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalash sodir bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tadqiqot ob`ekti hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo'lib, modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, ularning bozor tuzilmasidagi o'rni va ahamiyati bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Ilmiy ishning nazariy va uslubiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari hamda mehnat bozori va aholi ish bilan bandiligi, ishsizlik muammolari bo'yicha vatanimiz va xorij iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari tashkil etadi.

Mazkur tadqiqotning asosini ushbu muammolar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy-xuquqiy hujjatlar, Iqtisodiyot vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ilmiy abstraksiya va gipoteza, tizimli yondashuv, tanlab kuzatish, guruhlash, qiyoslash, statistik va iqtisodiy tahlil metodlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarkibiy o'zgarishlarini oqilona tashkil etish va rivojlantirish muammolarini hal qilish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi. Bular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- ilmiy adabiyotlarda berilayotgan “tarkibiy o'zgarishlar”, “diversifikatsiyalash” va “modernizatsiyalash” tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga aniqlik kiritilib ularning yangi takomillashgan ta'rifi ishlab chiqildi;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan aholining iqtisodiy funktsiyalari bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda kengaytirildi va ular tarkibiga bir qancha aniqliklar kiritildi;

- bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan aholining bozor tizimidagi va tarkibiy o'zgarishlarda o'rni asoslab berildi;

– ilmiy-texnika, texnologik va moliya institutlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning samaradorligini oshirish yuzasidan amaliy takliflar va tavsiyalar berildi;

– tarkibiy o`zgarishlarini rivojlantirish va qo`llab-quvvatlashni takomillashtirish bo`yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini hal qilishning nazariy kontseptsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo`lishi mumkinligidadir. Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati, unda ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalarning oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Tadbirkorlik faoliyati asoslari", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarish" kabi fanlarni o`qitishda, respublikada tarkibiy o`zgarishlar va modernizatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan me`yoriy hujjatlarni takomillashtirishda qo`llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot ishining asosiy natijalarini sinovdan o`tkazish va tatbiq etish.** Dissertatsiya ishining ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalari respublika ilmiy-amaliy konferensiya va an`anaviy magistratura talabalari anjumanlarda ma`ruzalar va baxs-mulohazalar orqali ma`ruza qilindi ("Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko`rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari". 2014 yil 21-22 aprel. "HAYDARYON" MHG korxonasi).

**Tadqiqot yuzasidan e`lon qilingan ilmiy ishlar.** Muallif tomondan quyidagi ilmiy ishlar e`lon qilingan:

1. Ruzieva M.Z., Rizaeva L.O. Maishiy xizmat ko`rsatish korxonalarida mehnatni tashkil etish orqali xizmat sifatini oshirishning asosiy yo`nalishlari //SamDU Ilmiy axborotnomasi, 2013. 6-son (82). B.109-113.

2. Ruzieva M.Z., Zommer T.P. Davlatning ish bilan bandlik xizmatini rivojlanishning asosiy yo`nalishlari /Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko`rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni

takomillashtirish muammolari. 2014 yil 21-22 fevral. Samarqand SamISI, 2014. 3-jild. B.143-146.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. U 89 sahifada yoritilgan.

I-BOB. TARKIBIY O'ZGARISHLARNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ularni tadqiq etishning nazariy masalalari

Modernizatsiya deyilganda, ko'p qirrali iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotni zamon talabidan kelib chiqqan holda yangilashga erishish tushuniladi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning qator turlari mavjud:

- ishlab chiqarish vositalarni modernizatsiyalash;
- texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash;
- iqtisodiyotni boshqarish usullarini modernizatsiyalash;
- xodimlar malakasi va ko'nikmasini modernizatsiyalash.

Ishlab chiqarish vositalarni modernizatsiyalash deyilganda, ko'p yil oldindan ishlatilib kelinayotgan texnikalarni bugungi kun talabiga mos holda yangi texnikalarga almashtirish tushuniladi. Bir mahsulotni turli xil texnologiya orqali ishlab chiqarish mumkin. Masalan, non oldin an'anaviy oddiy tandirda pishirib olinar edi. So'ngra u mexanizatsiyalashtirilgan katta maxsus qurilmalarga almashtirilgan. Hozir nonni ultratovush pechlarda avtomatik usullar bilan ham tayyorlamoqda. Ushbu yangilash jarayonni g'isht tayyorlash texnologiyalarda ham ko'zatish mumkin. Natijada 72 soat o'rniga g'ishtni ishlab chiqarishga endi faqat 17 soat sarflanadi. Ushbu natija va jarayonlarning barchasi texnika va texnologiyalarni modernizatsiya qilish orqali erishiladi.

Texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli ushbu tushunchaga ham katta e'tibor berish zarur. Texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash deyilganda, oldingi texnologiyalarga nisbatan zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan tejamkor samarali texnologiyalarning joriy qilishni tushuniladi.

Boshqaruv usullarini modernizatsiyalash ham zamon talabiga mos bo'lishi kerak chunki ilg'or texnika va texnologiyalar bilan ishlaydigan xodimlarni eski boshqaruv usullari bilan boshqarib bo'lmaydi.

Boshqaruv usullarini modernizatsiyalash deyilganda, butun jarayonni – ishlab chiqarish, texnologik, xizmat ko'rsatish, nazorat, innovatsiya kabi – boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda boshqarish tushuniladi.

Hozirgi paytda xodimlar malakasi va ko'nikmasini modernizatsiyalash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki barcha ishlarning boshida xodimlar turadi. Barcha jarayonlarni takomillashtiradigan ham xodimlarning o'zlari. Ammo ilg'or texnika va texnologiyalar hozirgi paytda xorijdan keltirilayotganligi tufayli ularni ishlatadiganlar ham xodimlar bo'lishi kerak. Bu esa, o'z navbatida xodimlarning ham malakasini zamon talabiga mos holda takomillashtirishni talab qiladi. Bunga ular malakaqismini modernizatsiyalash orqali erishiladi. Shu tufayli xodimlar malakasi va ko'nikmasi modernizatsiyalash tushunchasining ham ta'rifni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Xodimlar malakasi va ko'nikmasini modernizatsiyalash deyilganda, xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash evaziga zamonaviy usullarda boshqarish, texnika va texnologiyalarni ishlatishga qodir xodimlarni yangidan shakllantirish tushuniladi.

Hozirgi paytda hayotimizga kirib kelgan diversifikatsiya degan tushuncha ham keng qo'llanilmoqda. Diversifikatsiya deyilganda, iqtisodiyotda korxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni va xizmatlarning turlarini ko'paytirish, yangi bozorlarni egallash jarayonlari tushuniladi. Diversifikatsiyaning tegishli turlari mavjud:

- jamlanma diversifikatsiya;
- gorizonttal diversifikatsiya;
- vertikal diversifikatsiya.

Jamlanma diversifikatsiya deyilganda, korxonaning texnologik jarayonlarni keskin o'zgarmasdan oldingi ishlab chiqarayotgan tovariga o'xshash yangi tovarni ishlab chiqarishni ko'paytirish tushuniladi. Masalan, non ishlab chiqaruvchi

korxona 5 turdagi non ishlab chiqarayotgan edi. Endi bozor talabidan kelib chiqib, yana 2 ta turini qo'shib, ularning assortimentini 7 taga yetkazdi. Mazkur korxona shu tariqa mahsulotini diversifikatsiya qildi.

Gorizontal diversifikatsiya deyilganda, korxonaning oldingi qo'llayotgan texnologiyasidan boshqa resurs va energiya tejaydigan samarali texnologiyani qo'llab, ularni kengaytirgan holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi tushuniladi. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin. Masalan, elektr energiyasini gazdan foydalangan holda ishlab chiqarishni quyosh yoki shamol energiyasi bilan ishlab chiqarishga almashtirish ko'p qulayliklarga ega. Shu tariqa energiya ishlab chiqarishni ko'paytirishga erishildi. Yana bir misol: to'qimachilik sanoatida qo'llanilayotgan yarim avtomatlashtirilgan texnologiyalarni to'liq avtomatlashtirilgan texnologiyalar bilan almashtirish evaziga mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish ham shunday diversifikatsiyaga kiradi. Natijada texnologiyaning takomillashuvi evaziga bir vaqtning o'zida ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga erishiladigan bo'ldi. Bularning barchasi gorizontal diversifikatsiya bo'lib hisoblanadi.

Vertikal diversifikatsiya deyilganda, korxonaning yangi filiallarini, qo'shma va sho'ba korxonalarini ochish, yangi tovarlarni ishlab chiqarish, yangi bozorlarni topish evaziga oldingi holatini kengayishi tushuniladi. Masalan, televizor zavodi bozor talabidan kelib chiqib turli rusmdagi radiolarni va kompyuter monitorlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Bu jarayonda yangi texnologiyalar ham joriy qilindi va yangi mahsulot ishlab chiqarildi. Yoki non ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxona, boylik to'plagach o'z mablag'i hisobidan restoran va to'yxona qurib ishga tushirdi. Bu misolda bitta korxona mazmun jihatidan boshqa xarakterga ega bo'lgan ikkitaga aylandi. Bularning barchasi vertikal diversifikatsiya bo'lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, bizning mazkur tadqiqotimiz modernizatsiya, diversifikatsiya, tarkibiy o'zgarishlar kabi masalalarga ancha oydinlik kiritadi.

Jahon bozorlaridagi beqarorlik sharoitida mamlakatimizni barqaror rivojlantirish vazifasini hal etishda iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning raqobatdoshligi turli shakl va darajalarda namoyon bo'ladi. Bular:

- mamlakat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning raqobatdoshligi;
- mamlakat korxonalarining (firmalarining) raqobatdoshligi;
- mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining raqobatdoshligi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi;
- mamlakatning raqobatdoshligi.

Ayrim mutaxassislar raqobatdoshlikning oxirgi ikki shaklini birlashtirib ta'riflaydi hamda bu tasnifga xodimlarning raqobatdoshligini ham qo'shadilar.

Mahsulotning raqobatdoshligi uning sifati va narxiga ko'ra shu turdagi boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotidan ustunligi bilan belgilanadi.

Firmalarning raqobatdoshligi esa turdosh, raqobatlashuvchi korxonalarga nisbatan bir xil yoki o'rnini bosuvchi mahsulotlarni iste'mol harakteristikalari bo'yicha sifatli va pastroq narxlarda ishlab chiqarish hamda yetkazib berish imkoniyati bilan belgilanadi.

Firmalarning raqobatdagi ustunliklarini bir qator omillar belgilab beradi. Bularni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) milliy kompaniyalarning rivojlanish darajasi;
- 2) makroiqtisodiy biznes muhitning sifati².

Shveysariyaning Davos shahrida har yili bo'lib o'tadigan Jahon iqtisodiy forumining ishtirokchilari ma'ruzalarida firmalar darajasidagi raqobatdoshlik to'rtta asosiy omil bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi:

- resurslar (mamlaktda korxona mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi uchun resurslarning mavjudligi, hajmi va sifati);

² O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot/ mualliflar jamoasi: R. Alimov, A. Rasulev, A. Qodirov va boshq. – T.: Konsauditinform-Nashr. 2006, 14-b.

- tashqi raqobat;
- talab;
- tarmoqlararo aloqalar.

Xuddi shunday ta'rifni kengaytirilgan holda tarmoqlarning raqobatdoshligiga ham bersa bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi – halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyatidir.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi masalasi doimo iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu masaladagi zamonaviy nazariyalarning ko'piga asos bo'lgan fikrlar M.Porterning izlanishlarida yoritilgan.

M. Porter mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligi uning resurslar bilan yaxshi taminlanganligiga bog'liq emasligini, raqobat ustunligini shakllantirish, ta'minlab turish mumkinligini ko'rsatib berdi va unga mamlakat firmalarining raqobatdoshligini ta'minlash orqali erishiladi, degan fikrni ilgari surdi.

Raqobatdoshlikni shakllantirish va rivojlantirishning M.Porter konsepsiyasiga ko'ra, mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari “milliy romb”ni tashkil etuvchi to'rtta unsurdan iborat.

Quyida “milliy romb” ni tashkil etuvchi unsurlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Mehnat, material, bilim, pul, infratuzilma resurslari bilan ta'minlanish mamlakatning raqobatdoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu resurslarning ba'zilar oldindan mavjud bo'lsa, ayrimlari yaratiladi va rivojlantiriladi.

2. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga ichki va tashqi bozorlardagi talabning hajmi, tarkibi va ularning o'zgarishi milliy iqtisodiyotning

raqobatdoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu mahsulotlarga talab hajmining oshishi milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshiradi va aksincha.



1.1-rasm. Mamlakatning raqobat jihatdan ustunligini tashkil etuvchi unsurlar

(M.Porterning raqobat ustunliklari rombi)

3. Raqobatdosh hamkor tarmoqlarning mavjudligi murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, qimmat resurslarni mamlakat ichidan topish, mahsulot yetkazib beruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, yangiliklarni joriy qilishga ko'maklashish imkonini beradi. Minglab butlovchi qismlarni talab etuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishda raqobatbardosh bo'lish shu qismlarning aksariyatining mamlakatda ishlab chiqarilishini yo'lga qo'ymasdan mumkin bo'lmaganidek, kimyoviy tolalar, tugmalar va sifatli bo'yoqlar ishlab chiqaruvchi korxonalar mamlakatda mavjud bo'lmasa, birgina paxta xom-ashyosining mo'l-ko'lligi ko'ylak ishlab chiqarishda raqobatdoshlikni ta'minlash uchun yetarli bo'lmaydi.

4. Firmani boshqarishda raqobatning xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bunda turlicha strategiya va maqsadlar ishlab chiqiladi. Ichki bozorda keskin raqobatning mavjudligi firmalarni o'z faoliyatini takomillashtirishga, ishlab chiqarishni

kengaytirish uchun tashqi bozorlarga chiqishga undaydi. Kuchli ichki raqobat muhitida toblangan firmalar tashqi bozorlarda ham osonroq muvaffaqiyatga erishadi. Shu sababli hukumatning mamlakat ichida erkin raqobat muhitini yaratish, monopollashuvga qarshi kurashish kabi chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu to'rt unsurga hukumatning faoliyati va tasodifiy holatlar ta'sir ko'rsatadi.


Tasodiflar jumlasiga mamlakatni rivojlantirishning umumiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lmagan, yuzaga kelishiga firma ham, davlat ham ta'sir ko'rsata olmaydigan hodisalar kiradi. Ularga ixtirochilik, yirik texnologik yutuqlar, resurslar narxining keskin ko'tarilishi, jahon moliyaviy bozorlari konyukturasi va almashinuv kurslarining, tashqi talabning keskin o'zgarishi, chet el hukumatlarining siyosiy qarorlari, urushlar va tabiiy ofatlarni kiritish mumkin.

Hukumat milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini har to'rt unsurga ta'sir ko'rsatish orqali shakllantiradi va o'zgartiradi.

Demak, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuvi, biznes yuritish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning qulayligi, mamlakat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga bo'lgan talab hajmi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslangani va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olgani hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq, deb xulosa qilish mumkin.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi tushunchasi bilan bir qatorda mamlakatning raqobatdoshligi atamasi ham qo'llanmoqda.

IMD (Lozannadagi "Menejmentni rivojlantirish instituti") tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra mamlakatning raqobatdoshligi millatning raqobatbardosh biznes yuzaga keladigan muhitni yaratish va ta'minlab turishiga qodirligidir.



1.2-rasm. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar

Menejmentni rivojlantirish instituti bergan ushbu ta'rif keng qamrovli bo'lib, unda davlatning raqobatdoshlikni ta'minlashdagi roli kattaligi va faol bo'lishi zarurligi o'z aksini topgan. Chunki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, faol monetar va fiskal siyosat olib borish, iqtisodiyot va moliya sohasini tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uni modernizatsiya qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, ta'lim sohasini isloh etish raqobatdosh biznes yuzaga kelishining hal qiluvchi omillaridir.

“Zamonaviy raqobat kurashida so‘z, birinchi navbatda, resurslar, moddiy boyliklarga egalik to‘g‘risida emas, balki yangiliklarni joriy eta olish qobiliyati to‘g‘risida boradi”³.

Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, zamonaviy texnologik uskuna va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning ilg‘or usullarini amaliyotga kiritish, yangi bozorlarga kirib borish orqaligina global o‘zgarishlar sharoitida raqobatdoshlikni ta'minlab turish mumkin.

Respublikamizda iqtisodiyotning raqobatdoshligini ta'minlash uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (1.2-rasm).

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida jiddiy sifat o‘zgarishlari amalga oshirildi. Avvalo, yoqilg‘i-energetika sanoatini rivojlantirish orqali energetika mustaqilligiga erishildi. Energetika va keyinchalik don mustaqilligiga erishish iqtisodiyotimizning tashqi ta'sirlarga bardoshlilik darajasini oshirdi.

Mamlakatimiz uchun yangi bo‘lgan avtomobilsizlik sanoatining barpo qilinishi bu tarmoq bilan kooperatsiya asosida ishlovchi o‘nlab korxonalarning tashkil etilishiga olib kelmoqda. Birgina o‘tgan 2011 yilda 221 ming 400 ta yengil avtomobil, 964 ta avtobus ishlab chiqarildi. Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan

³ O‘zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish /O‘zR FA Iqtisodiyot instituti; A.F.Rasulevning tahriri ostida, - T.: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2011. 6-b.

avtomobillarning xorijiy mamlakatlar bozorlarida raqobatdoshligi ularni eksport qilish ko‘lami kengayishiga asos bo‘ldi.

Investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va teknik qayta qurollantirish dasturlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Yangidan barpo qilingan va modernizatsiya qilingan korxonalarda raqobatdosh, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish borasida qilingan ishlarni ijobiy baholagan holda bu boradagi chora-tadbirlar ko‘lamini uzluksiz tarzda kengaytirish zarur ekanini qayd etishiiz zarur.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida raqobatdoshlik darajasini oshirish masalasiga innovatsion yondashish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni, zamonaviy ilmiy yutuqlarni sanoat tarmoqlariga jadal joriy qilish orqali jahon xo‘jaligi tizimida milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuvini kengaytirish va sanoat ishlab chiqarishi tarkibini diversifikatsiya qilish imkonini beradigan yangi raqobat ustunliklarini yaratish zarur.

1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamiyatdagi tarkibiy o‘zgarishlar

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda jamiyat tarkibi ba institutlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar uning ijtimoiy tuzilishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mulkchilik hamda xo‘jalik munosabatlari o‘zgardi va o‘zgarib bormoqda, ijtimoiy tabaqalanish omillari va mexanizmlari yangilanib qayta qurilmoqda, o‘rta tabaqa va elitani jadal almashish jarayoni ro‘y bermoqda. Ijtimoiy hayotga yangi sotsial guruhlar chiqib kelmoqda, ma’lum bir qatlamlar o‘z ijtimoiy maqomini o‘zgartirmoqda. Moliyaviy va mehnat resurslarning xajmi, harakati, aylanishi va miqyoslari o‘smoqda, yanada tezlashmoqda va murakkablashmoqda.

Barcha yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, sotsial guruh manfaatlari tizimi, xulq-atvor, ijtimoiy hamkorlik shakllari va usullari o‘zgarmoqda. Bular

jamiyat ijtimoiy o'zgarishi jarayonining har xil tomoni hisoblanadi. Shuning uchun ularni nafaqat alohida, balki bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda o'rganish muhimdir.

“Jamiyatni, avvalo ichki harakatlantiruvchi kuchlar ta'siri ostida o'zgarib borayotgan bir butun ijtimoiy tizim sifatida bayon etish asosiy ilmiy vazifa hisoblanadi”⁴.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyalar uchun tarkibni qandaydir qotib qolgan bir qurilma deb emas, balki doimiy rivojlanuvchi bir butun sifatida tushunish xarakterlidir. Bunda tarkibni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro aloqadorligi o'zgarishlar manbai deb tan olinadi.

Zamonaviy iqtisodiyotning asosini, harakatlantiruvchi kuchini iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqa omillarning o'zaro hamkorligi tashkil etadi. Bozor islohotlari sharoitida ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy salohiyati o'zida uch tarkibiy qismni birlashtiradi:

- 1) daromad keltiruvchi kapitalga ega bo'lish;
- 2) ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishi, siljishi va ayirboshlanishi jarayonlariga aloqadorlik;
- 3) shaxsiy daromad va iste'mol darajasi.

Modernizatsiyalash sharoitida asosiy rol birinchi tarkibiy qismga tegishli bo'ladi. Buni asosiy sabablari shuki, nodavlat mulkning xo'jalik yuritish shakllari turli-tuman ko'rinishlari faol shakllanmoqda va tarkibiy o'zgarishlar faol o'tib bormoqda. Turli tipdagi (moliyaviy, savdo, sanoat, intellektual) kapitallar vujudga kelmoqda. Xususiy capital egalari ajralib chiqdilar. Ular tarkibida jamiyatning turli qatlamlariga mansub bo'lgan juda yirik, o'rta va kichik mulkdorlar bor. Shaxsiy xo'jalikka ega bo'lgan va mulkdorlarga aylangan (yerni sotishdan tashqari) dehqon va fermerlar alohida o'rin tutadilar.

Iqtisodiy salohiyatning ikkinchi tarkibiy qismi ilgari ustuvor bo'lib, hozirda o'z o'rnini birinchisiga bermoqda. Chunki, o'rta mulkdorning iqtisodiy maqomi

⁴ Saidov K.S., Seytmuratov R.A., boshq. Sotsial iqtisodiyot. - T.: "O'ZBEKISTON", 2006. 92 b.

malakali menejernikidan yuqori turadi. Buning ustiga, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi bilan moddiy va moliyaviy resurslar manfaatdor xo'jayinlarga ega bo'lmoqda, bu ularning talon-taroj bo'lish imkoniyatini qisqartirmoqda. O'z kapitaliga moddiy boyliklarni taqsimlashda qatnashish imkoniga ega bo'lmagan fuqarolar ulushi keyingi yillarda ancha kamaydi, biroq ular avvalgidek jamiyatning eng ko'pchilik qismini tashkil etmoqda. Bu odamlarning iqtisodiy salohiyati yollanma mehnat bo'yicha daromad darajasi bilan aniqlanadi, ularning ahvalidagi asosiy o'zgarishlar, birinchidan, avvalgidan ko'ra ancha keskin mulkiy qutblanish va, ikkinchidan, mehnat va daromad o'rtasidagi bog'liqlikning deyarli to'liq yo'qolganligidan iboratdir.

Ijtimoiy tabaqalashuvning bosh mezoni kasbiy tabaqalashuv hisoblanib, bu mehnatning murakkablik darajasi bilan aniqlanadi. Boshqa bir qancha muhim bo'lgan mezon olinadigan daromad va moddiy farovonlik, ya'ni iqtisodiy tabaqalashuv hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'tish davridagi jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar va sotsial tabaqalashuvni soddaroq tahlil qilish maqsadida kasbiy tabaqalashuvning uch asosiy guruhini ko'rib chiqish mumkin:

1) birinchi tabaqaga asosan oddiy va bir xilda takrorlanuvchi harakatlar va ish turlaridan iborat mehnat sohasida band bo'lganlar kiradi (masalan, qurilish yoki sanoat konveyer oldidagi ishchilar, sotuvchilar, yordamchi ishchilar va b.); yangilikka intiluvchi, ijodiy xarakterdagi mehnat xodimlari (professor-o'qituvchi va ta'lim sohasida band bo'lgan olimlar, siyosatchilar, ishlab chiqarish tashkilotlarining bir qismi va b.);

2) ikkinchi tabaqa – ma'lum usullar va harakatlar asosidagi ko'proq murakkab intellectual mehnat sohasi xodimlari (muhandis, o'qituvchi, vrach, boshqaruvchi-menejer va b.);

3) uchinchi tabaqa – noan'anaviy yoki innovatsion yondashuv asosidagi yangilikka intiluvchan, ijodiy xarakterdagi mehnat xodimlari (fan sohasidagi olimlar, siyosatchilar, ishlab chiqarish tashkilotchilarning innovatsion qismi va b.).

Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitlarida bir tabaqadan boshqasiga o'tishga keng imkoniyatlar va erkinliklarning mavjudligi insonning ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishini, uning kasbiy va ma'lumot darajasining o'sishini rag'batlantiradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning ko'p ukladliligi va ko'p sektorliligida ham o'z ifodasini topadi. Zamonaviy innovatsion iqtisodiyot, o'zining chuqur mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy hayotning shakllari va namoyon bo'lishida fikrlar xilma-xilligini, turli-tumanlik, liberallashuv va demokratizmni taqozo etadi.

O'tish davrining dastlabki bosqichida ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi, mulkchilik munosabatlarining va olinadigan daromad shakllarining erkinlashuvi, ish xaqining davlat tomonidan tartibga solinishi, umummilliy mehnat bozorining yo'qligi, o'z-o'zicha bandlikning keng rivojlanishi, bajarilgan ish xaqining kechikib berilishi kabilar daromadlar sohasidagi chuqur tafovutlarga olib keldi. Bunday sharoitda aholining bir qismi kambag'allik chegarasidan tashqarida qoldi, boshqa bir qismi esa, boyib ketdi. Aholining daromadlari va turmush darajasidagi farqlar ob'ektiv shart-sharoitlarga bog'liq.

Hozirgi davr uchun xos bo'lgan eski ijtimoiy institutlarning jadal yemirilishi va yangilarning shakllanish jarayonlari mehnat, ijtimoiy harakatchanlikni va tarkibiy o'zgarishlarni kuchaytirmoqda. Shu munosabat bilan iqtidor, mahoratning qadr-qimmati va demakki, sotsiomadaniy kapitalning rolo oshib bormoqda.

Umuman olganda jamiyatning tuzilishi avvalgi eski zamonga taqqoslaganda sezilarli o'zgarishlarga uchradi.

Yangi vujudga kelayotgan, jadal rivojlanayotgan o'rta qatlamga tegishli bo'lgan ijtimoiy faol guruhlar (birinchi navbatda tadbirkorlar) jiddiy tahlilga tortilmoqda.

Ijtimoiy-tarkibiy tadqiqotlarning o'zgaruvchanlik yo'nalishlari ko'pincha ijtimoiy guruhning soni va tarkibidagi o'zgarish va siljishlar tahlili bilan cheklanib qoladi. Ijtimoiy guruhlarining aloqalari va o'zaro hamkorligi, ijtimoiy tarkibning

tizimliliği, jamiyatning amal qilishi va rivojlanishining chuqur mexanizmlari ancha kam o'rganilgan. Shuning uchun ularning predmeti ichki hayotdan va o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmidan mahrum bo'lib qoladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirmasdan, raqobatdosh iqtisodiyot, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, o'rta muddatli istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga olib chiqishdek strategik vazifani amalga oshirish mumkin emasligi Yurtboshimiz tomonidan ta'kidlab o'tildi.

Bu maqsad mamlakat iqtisodiyotini izchil ravishda isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish orqaligina ta'minlanishi mumkinligini ilg'or davlatlar tajribasi ko'rsatib turgani Prezidentimiz ma'ruzasida alohida qayd etildi (1.3-rasm).

“Respublika sanoatini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, kompleksi va korxonalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida” qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishari to'g'risida»gi 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturning amalga oshirilishi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda yangi bosqich bo'ladi.



1.3-rasm. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini ta'minlash shartlari


Dasturga ko'ra, respublikamizda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish orqali uning YAIMdagi ulushini 2013 yilga qadar 28 foizga o'stirish, yakuniy tayyor mahsulotlarning sanoat mahsuloti umumiy hajmidagi ulushini 61,2 foizga, sanoat mahsuloti eksportining mamlakat eksportidagi ulushini esa 71,8 foizga, eksport qilinayotgan sanoat mahsulotlari hajmining jami sanoat mahsulotidagi ulushini esa 63,2 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Bu parametrlarga erishish uchun 2011-2015 yillar davomida 25,67 milliard AQSH dollaridan ko'proq investitsiyalarni o'zlashtirish maqsad qilib qo'yilgan.

Sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatdosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishga katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etish hamda o'zlashtirish orqaligina erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 oktyabrdagi «Yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1623-sonli qarori bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, 2012-2016 yillarda, hisob-kitoblar bo'yicha, qiymati 6 milliard 200

million dollar bo‘lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.



1.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi sanoatini 2015 yilga qadar rivojlantirishning maqsadli parametrlari⁵

Joriy yilda Samarqand viloyatida yiliga 3 ming dona yuk avtomobillari va pritsep texnikasi ishlab chiqarish bo‘yicha yangi majmuani yaratish (qiymati 69,38 million dollar), Andijon viloyatida “Jeneral Motors O‘zbekiston” YOAJ avtomobillari uchun yiliga 900 ming dona disk va 123 ming dona shassi uzellari ishlab chiqarishni tashkil qilish, Farg‘ona shahrida yuqorida zikr etilgan yangi model avtomobillar uchun yiliga 120 ming komplekt shtamppayvand detallar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, avtomobil o‘rindiqlari, oynalari, akkumlyatorlari, ko‘targichlari, bampelerlar, plastmassa detallar, eshik qoplamalari, radiatorlar, ventilyatsiya va istitish tizimlarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyihalar amalga oshiriladi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi qarori.

Ushbu loyihalarning aksariyati mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan. Avtomobilsozlik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning ko‘payishi, o‘ziga xos klasterlarning yuzaga kelishi, butlovchi qismlar ishlab chiqarishning mahalliyashtirilishi tayyorlanayotgan avtomobillar narxining barqarorligini, ularning tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Samarqand viloyatda iqtisodiyot tarmoqlarining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha samarali ishlarning davom ettirilishi natijasida so‘nggi 5 yil mobaynida YAHMning o‘sinh sur‘ati o‘rtacha 10,5 foizga o‘sgan. 2013 yilda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 foizga o‘sdi.

Keyingi yillarda yalpi hududiy mahsulotning tarkibida ham sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Asosiy tarkibni tashkil etuvchi qishloq xo‘jaligining ulushi so‘nggi yillarda 44,2 foizdan 11,4 foizga kamayishi natijasida, xizmatlar turini ko‘paytirish va ushbu sohaga keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida xizmatlarning ulushi 44,5 foizga oshdi.

So‘nggi ikki yil davomida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida va korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologik yangilash, investitsiyalarni keng jalb qilinishiga natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi muttasil oshib borib, yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi 2012 yilda 12,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2013 yilda 12,5 foizga yetdi.

Keyingi 5 yil davomida aholi jon boshiga xalq iste‘moli mollari, xizmatlar hamda aholining pul daromadlari oshganligi natijasida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot 2013 yil yakuni bilan 2159,8 ming so‘mni tashkil qilib, 2009 yilga nisbatan 1289,8 ming so‘mga ko‘paygan.

Samrqand viloyatda joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3298,4 mlrd.so‘mni tashkil etib, o‘sinh sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 113,6 foizni (viloyat sanoatining respublikadagi ulushi 5,3 foiz) va bu ko‘rsatkich o‘tgan besh yil mobaynida 2,2 martaga, shuningdek, xalq iste‘mol mollari ishlab

chiqarish 2,0 martaga oshishi natijasida bu ko'rsatkich bo'yicha Respublikadagi ulushi 9,5 foizga yetdi.

Viloyat sanoatida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilganligi natijasida, tarmoqlar o'rtasidagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham o'zgardi: keyingi besh yilga nisbatan kimyo sanoati 4,3 martaga, o'rmonchilik va yog'ochni qayta ishlash 12,2 foizga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash 2,4 martaga, yengil sanoat 2,2 martaga, oziq-ovqat sanoati sohasi 1,9 martaga, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati sohasi 3,2 martaga o'sishga erishilib, o'rtacha yillik o'sish darajasi viloyat bo'yicha 22,6 foizni shundan xalq iste'mollari ishlab chiqarish 15,0 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish joriy yil yakuni bilan 2121,3 mlrd so'mni yoki o'sish sur'ati 114,3 foizni tashkil etdi.

Hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 1316,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 120,0 foizni va viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi yilda 40,0 foizni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan 4,3 foizga oshdi.

Tarmoqlar o'rtasida mahsulot ishlab chiqarishda ham o'zgarishlar amalga oshdi. Misol uchun: viloyatda mashinasozlik tarmog'iga asos solindi va umumiy ishlab chiqarishda ushbu sohaning ulushi keyingi 5 yil davomida 12,5 foizdan 17,1 foizga, kimyo sanoatining ulushi 1,2 foizdan 2,5 foizga, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati 4,2 foizdan 6,3 foizga oshgan.

Mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq iqtisodiyotdagi o'zgarishlar davrida korxonalar bozor munosabatlarining muhim sub'ekti bo'lib qolmoqda. Viloyatdagi sanoat korxonalarida eskirgan uskuna va texnologiyalarini yangilab, zamon talablariga javob bera oladigan yangicha shakldagi jihozlar o'rnatish hamda shu bilan birgalikda yangi turdagi bozor (zamon) talabiga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, jumladan: trikotaj va chinni buyumlari ishlab chiqarishda foydalanilayotgan uskunalarining 60 foiz, mebel

ishlab chiqarishda 80 foiz, tikuvchilik, to'qimachilik va attorlik buyumlari ishlab chiqarish dastgohlarining 90 foizi yangilandi.

Respublikamizda birinchilardan bo'lib, yuk va avtobuslar, shuningdek, sigaretalar, uy-ro'zg'or shisha idishlari, uy-ro'zg'or elektr moslamalari, elektr soat, kalsit, atir sovun, yangi turdagi gilam va palaslar, zamonaviy mebellar kabi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1.3. Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida aholi daromadlarning tabaqalashuvi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning tengsizligi, ularning farqlanishi xosdir. Bozor iqtisodiyotida taqsimot munosabati tenglikni emas, balki tengsizlikni keltirib chiqaradi va bu iqtisodiyot o'sishiga katta rag'bat beradi. Bozor iqtisodiyotidagi daromadlar tengsizligining ikki ziddiy jihat mavjud. Tengsizlik, birinchidan, adolatli, ikkinchidan adolatsiz hisoblanadi. Daromadlarning ish qobiliyati, bilim, malaka, mahorat va umuman salohiyatga qarab taqsimlanishidan kelib chiqqan tengsizlik tabiatan adolatli hisoblanadi. Yaxshi ishlagan ishchi yoki xizmatchining ko'p daromad topishi tabiiy, chunki u hayotiy ne'matlarni ko'p va sifatli yaratgani uchun ularni ko'proq o'zlashtirishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik daromadi bo'lgan foydaning miqdori ham ishbilarmonlik qobiliyatiga, u bergan natijaga bog'liq bo'ladi. Katta daromad yaxshi ish natijasi bo'lganidan bu ham umuminsoniy qoidalar jihatdan adolatli daromad hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlardagi tengsizlik kishilar ishlab topgan pul miqdorida katta farqlar bo'lishini bildiradi. Tengsizlikni asosan to'rt omil paydo etadi:


1) Kishilarning tug'ma qobiliyatlari, kuch-quvvati, aql-idroki, salohiyat va zakovati, xullasish qobiliyati bir xil emas. Shu tufayli ular iqtisodiy faoliyat natijasida har xil daromad ko'radilar.

2) Daromadlari tengsizlik kishilar o'z salohiyatini ishga solish imkoniyatlariga bog'liq. Bilim olish, kasb egallash, malakani oshirish imkoniyatlari bo'lgan va ish topiladigan joyda daromad ko'p bo'lsa, bunday sharoitlar yo'q joyda daromad oz bo'ladi. Masalan, bu borada poytaxt va qishloq joylari orasidagi bo'lgan farq juda katta bo'ladi. Shu sababli mehnat migratsiyasi juda rivojlanib boradi. Bu holat barcha mamlakatlarga xos bo'lgan narsa.

3) Tengsizlikni oila tarkibining har xil bo'lishi ham yuzaga keltiradi, agar oila tarkibida pultoparlar ko'p bo'lib, boqimandalar oz bo'lsa, uning jami daromadi ko'p bo'ladi, aksincha bo'lsa daromad oz bo'ladi.

4) Daromadlardagi farqni iqtisodiy xatar ham yuzaga keltiradi. Bozor iqtisodiyoti tasodiflardan xoli emas. Ular daromadlarga, ayniqsa tadbirkor daromadiga ta'sir etadi. Bozorda narx oshib ketsa, katt daromad keladi. Agar narx pasayib ketsa, kutilgan daromad ham olinmaydi. Demak, daromadlardagi farqni bozor holati o'zgarishlari ham yuzaga keltiradi.

Daromadlardagi tengsizlik tabiiy bir hol bo'lib, daromadi ozlarni yaxshi ishlab pul topishga undaydi. Daromadlardagi farqlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad summasiga qarab aniqlanadi. Buning uchun oila ko'rgan yalpi daromad summasiga qarab aniqlanadi. Buning uchun oila ko'rgan yalpi daromadni uning a'zolari soniga bo'linadi. Mamlakat aholisining daromadidagi tfovutlar darajasi tahlil etilganda 10 foiz boy aholining daromadi bilan 10 foiz kambag'al oilalar daromadi taqqoslanadi. Natijada boylar va kambag'allar daromadi necha karra farqlanishi aniqlanadi. Rossiyada 1995 yili bu daromadlar solishtirilganda boylarning daromadi kambag'allarnikidan 13,5 marta ko'p bo'lgani aniqlanadi. O'zbekistonda bu farq 7 marta edi. Hozirgi paytda bu ko'rsatkich (Jini koefisienti) Rossiyada 20, O'zbekistonda – 8.



1.5-rasm. Daromad bo'yicha aholi piramidasi⁶

Daromadlarga qarab aholi tabaqalashganda uning har xil qatlamlari paydo bo'ladi. Bu qatlamlar o'z daromadlariga ko'ra ijtimoiy ierarxiyani yoki piramidani tashkil etadi (1.5-rasm).

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad ko'p bo'lganidan davlat boylar daromadi hisobidan kambag'allar daromadini oshirib boradi. Natijada aholi o'ta boy va o'ta kambag'allarga ajralib qolmaydi. Daromadlar qanchalik adolatli bo'lmasin, baribir kambag'allik muammosi saqlanib qoladi. Kimning kambag'al ekanligi oila daromadining umumiy miqdoriga qarab emas, balki bu daromadning

⁶ Muallifning tadqiqotlari asosida tuzilgan.

oila jon boshiga to'g'ri keladigan miqdoriga qarab aniqlanadi va oila tirikchiligining minimal qiymatiga nisbatan baholanadi.

Agar daromad jon boshiga tirikchilik qiymatidan past bo'lsa, oila kambag'al hisoblanadi. Masalan, oilaning jami daromadi bir oyda 1500000 so'm, oila 5 kishidan iborat, demak, jon boshiga daromad 300000 so'mni tashkil etadi. Oilaning minimal tirikchilik qiymati jon boshiga hisoblanganda 350000 so'm. Bunda oila daromadi uning tirikchilik qiymatiga yetmaydi ($300000 < 350000$). Demak, oila kambag'al hisoblanadi.

Yashirin yoki hisobga kirmagan daromad bor joyda oilaning topgan puliga qarab uning kambag'alligini aniqlab bo'lmaydi. Oilaning rasmiy daromadi oz bo'lgani holda u amalda kambag'al bolmasligi mumkin. Masalan, hisob-kitobda oilaning jon boshiga daromadi past, lekin uning uyida sigiri, avtomashinasi, mebeli, video, rangli televizori bor. Bu oila mol-mulki nazarda tutilsa, kambag'al emas, demak yordamga muhtoj bo'lmaydi.

Jamiyat hamisha kambag'allikni tugatish yo'lidan boradi. Uning sinalgan ikki yo'li mavjud. Birinchisi, kambag'allarda iqtisodiy faollik uyg'otish. Ikkinchisi, kambag'allarga davlatning va firmalarning moddiy yordam berishini tashkil etish. Bu vosita zarur bolsa-da, boqimandalik kayfiyatini tug'dirib, faollikka undamaydi. Shu sababli bu yo'l o'zini o'zi boqishga qodir bo'lmagan kishilarga, masalan, nogironlarga va ko'p bolali oilalarga nisbatan qo'llanadi.

Aholi daromadlarining shakllanishi ko'plab omillar ta'siri ostida yuz beradi. Ular jumlasiga odamning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarni, ya'ni uning mehnatga munosabatini, bilim, kasbiy va mehnat salohiyatini kiritish mumkin. Daromadlarning shakllanishida korxonaning mulkchilik shakli, uning tashkiliy-huquqiy shakli, korxona tarmog'i, joylashgan o'rni, mehnat-tashkiliy madaniyat va munosabatlarining rivojlanganligi kabi omillar ham o'ziga xos ahamiyatga egadir. Daromadlar tarkibi va manbalari ko'p jihatdan davlat tuzilishi tizimi va iqtisodiyotning samaradorligi bilan ob'ektiv bog'liqdir. Umuman ushbu omillar iqtisodiy siyosatning va xususan daromadlar siyosatning yo'nalishlarini belgilaydi.

1.1.-jadval

O'zbekiston aholisi pul daromadlaridagi tarkibiy o'zgarishlar (1993-2013 yillar)⁷

№	Ko'rsatkichlar	1993	2000	2003	2013*
1.	Mehnatga haq to'lash	82,3	54,3	56,6	33,0
2.	Sotsial transfertlar	14,3	14,9	11,4	16,4
3.	Tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar va boshqa daromadlar	3,4	30,8	32,0	50,6
	Jami pul daromadlari	100,0	100,0	100,0	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1.1.-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aholining shaxsiy daromadlari tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Islohotlar davrida mehnatga haq to'lashning ulushi aholining umumiy pul daromadlarida jiddiy ravishda pasayib bordi: 1993 yildagi 82,3% dan 2013 yilda 33,0% ga tushdi. Demak, mehnat haqi ulushida pasayish tendensiyasi ko'zatlansa, tadbirkorlik daromadlari teskari – yuksalish tendensiyaga ega: 1993 yilda atigi 3,4% dan 2013 yilda 50,6% gacha ko'tarildi. Ushbu tendensiyaning ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin, chunki bu aholining iqtisodiy faol qismidan anchasining tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasiga o'tayotganligining oqibatidir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisi daromadlarni oshirishning eng samarali yo'li, bu kasanachilikni rivojlantirishdir. Kasanachilikni rivojlantirish oila daromadini oshirishda muhim masalani hal etadi va ishlab chiqarishga band etilmagan aholini faol qismini, ayniqsa uning ijtimoiy zaif qismini jalb etish imkonini yaratadi, bu esa milliy xususiyatlarga va xalqaro amaliyot talablariga javob beradi.

Ushbu bobdagi nazariy va amaliy muammolarni tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

⁷ Uzbekistan v sifraz. Stat. sbornik Goskomstata RUz. – T., 2004, s.59.

* Xayitov A.A. Aholi daromadlarini oshirish va turmush sharoitini yaxshilash...- T., //M AIM Vazirligi, 2014. 2 b.

Kooperatsiyaning foydasi

Ish beruvchi uchun	Kasanachi uchun
Soliq imtiyozlari va kasanachilar ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan ozod etilishi	Amaldagi qonunchilik va jamoa shartnomalari asosida ijtimoiy himoya
Yangi ish joylarini yaratishda kam xarajatlik	Transport uchun vaqt va mablag' ketkazmaslik
Yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqarish uchun maydon va dastgohlarning bo'shaganidan foydalanish	Mustaqil ravishda ish vaqtini belgilash va oila a'zolarini ham bu ishga chorlash
Mehnat unumdorligini kasanachilarga berilgan o'zgaruvchan ish vaqti hisobiga oshirish	Yangi bilim va ko'nikmalar olish, mehnat jamoasi a'zosi xisini saqlab qolish

1. Hozirgi zamonda aholi daromadlarning turli xil shakllari rivojlanmoqda. O'zbekistonda aholining shaxsiy daromadlari tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

2. Ish haqi ko'pchilik aholining asosiy daromadi. Rivojlangan mamlakatda jami daromadlarning 70-80 foizini ish haqi tashkil etadi. O'zbekistonda uning aholi daromadidagi hissasi 1994 yilda 58 foizni tashkil topgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 33 foizni tashkil topgan.

3. Tadbirkorlik daromadlari teskari – yuksalish tendensiyaga ega: 1993 yilda atigi 3,4% dan 2013 yilda 50,6% gacha ko'tarildi. Ushbu tendensiyaning ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin, chunki bu aholining iqtisodiy faol qismidan anchasining tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasiga o'tayotganligining oqibatidir.

I-BOB BŴYIICA XYLICA

1. Texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli ushbu tushunchaga ham katta e'tibor berish zarur. Texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash deyilganda, oldingi texnologiyalarga

nisbatan zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan tejamkor samarali texnologiyalarning joriy qilishni tushuniladi.

2. Hozirgi paytda hayotimizga kirib kelgan diversifikatsiya degan tushuncha ham keng qo'llanilmoqda. Diversifikatsiya deyilganda, iqtisodiyotda korxonalar faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni va xizmatlarning turlarini ko'paytirish, yangi bozorlarni egallash jarayonlari tushuniladi. Diversifikatsiyaning tegishli turlari mavjud:

- jamlanma diversifikatsiya;
- gorizontal diversifikatsiya;
- vertikal diversifikatsiya.

3. Hozirgi zamon iqtisodiyotida raqobatdoshlik darajasini oshirish masalasiga innovatsion yondashish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni, zamonaviy ilmiy yutuqlarni sanoat tarmoqlariga jadal joriy qilish orqali jahon xo'jaligi tizimida milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuvini kengaytirish va sanoat ishlab chiqarishi tarkibini diversifikatsiya qilish imkonini beradigan yangi raqobat ustunliklarini yaratish zarur.

4. Aholi daromadlarining shakllanishi ko'plab omillar ta'siri ostida yuz beradi. Ular jumlasiga odamning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarni, ya'ni uning mehnatga munosabatini, bilim, kasbiy va mehnat salohiyatini kiritish mumkin. Daromadlarning shakllanishida korxonaning mulkchilik shakli, uning tashkiliy-huquqiy shakli, korxona tarmog'i, joylashgan o'rni, mehnat-tashkiliy madaniyat va munosabatlarining rivojlanganligi kabi omillar ham o'ziga xos ahamiyatga egadir.

II – BOB. IQTISODIY O‘SHISHNING O‘ZBEKISTONDAGI SHART-SHAROITLARI

2.1. Investitsiyalarni jalb etishning tarkibiy o‘zgarishlar uchun ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish tomon yo‘l olib, jahon xujaligi munosabatlariga, xalqaro investitsion hamkorlik jarayoniga tobora chuqurroq qushilmoqda. Bozor munosabatlariga o‘tish iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish va faol investitsion faoliyatning zarurligini belgilab beradi. Keng kulamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, strategik maqsadlarni ko‘zlaydi va olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston islohotlar modeli o‘z samaradorligini ko‘rsatib bormoqda. Bu narsani 2.1-jadvalda ko‘rish mumkin:

2.1.-jadval

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotning rivojlanishi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shish dinamikasi⁸

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilga nisbatan o‘shish suratlari, %						
	2000	2005	2006	2007	2008	2010	2013
YaIM (ishlab chiqarilgan)	103,8	107,0	107,3	109,5	109,0	108,5	108,0
Iqtisodiyotning tarmoqlari							
Sanoat	105,9	107,3	110,8	112,1	112,7	108,3	108,8
Qishloq xo‘jaligi	103,1	106,2	106,2	106,1	104,5	106,8	106,8
Asosiy kapitalga sarmoyalar	100,9	107,0	109,1	122,9	128,3	109,2	116,6
Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi	32,3	16,0	14,0	14,0	14,0	14,0	12,0
Ishsizlik darajasi	0,4	0,3	0,4	0,2	0,4	0,1	0,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarni maqsadga yo‘naltirilgan holda va tizimli amalga oshirish natijasida o‘shishning barqaror yuqori sur‘atlarini

⁸ O‘zR Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan. T., 2014. 3-b.

makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash, mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgarish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash ta'minlandi.

2013 yilda o'zlashtirilgan sarmoyalar hajmi ekvivalentda 13,0 mlrd.doll. tashkil etib, 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga o'sdi. Xorijiy investisiyalar hajmi 3,0 mlrd. AQSh doll. ortiq bo'ldi, uning 72 foizidan ortig'i (2,2 mlrd. AQSh doll.) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalardir. Investisiya dasturi doirasida ishlab chiqarish yo'nalishida umumiy qiymati qariyb 2,7 mlrd. AQSh doll. tashkil etgan 150 ta loyihani amalga oshirish tugallandi.

Xorijiy investitsiyalarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishish va iqtisodiyotning yuksalishidagi ahamiyati yuqori (2.2-jadval):

2.2.-jadval

1995-2013 yillarda O'zR YaIM o'sish dinamikasi⁹

Yillar	Yalpi ichki mahsulot	
	Tegishli yilning joriy narxlarida (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan o'sish suratlari, % (mos narxlar hisobida)
1995	302,8	99,1
1996	559,1	101,7
1997	976,8	105,2
1998	1416,2	104,3
1999	2128,7	104,3
2000	3255,6	103,8
2001	4925,3	104,2
2002	7450,2	104,0
2003	9844,0	104,2
2004	12261,0	107,7
2005	15923,4	107,0
2006	21124,9	107,3
2007	28190,0	109,5
2008	38969,8	109,0
2009	49375,6	108,1
2010	62388,3	108,5
2011	78764,2	108,3
2012	96589,8	108,2
2013	110000,0	108,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁹ O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari (O'zR yillik statistik to'plami. – T.,2014. 28 b.) asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Investorlarning u yoki bu mamlakatga sarmoya kiritishga tayyorligi, jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi, ularning tarkibi va dinamikasi avvalambor, u yoki bu mamlakatning mahalliy hamda xorijiy investorlar uchun investitsion jozibadorligi ya'ni mamlakatda mavjud bo'lgan investitsiya iqlimiga bog'liqdir. Mamlakatdagi xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlari "Investitsion iqlim" deb ataluvchi umumiy tushuncha ostida birlashgan turli xil omillar majmuiga bog'liq. Investorlar u yoki bu mamlakatda qanday sharoitda faoliyat yuritishlariga befarq emaslar va bu erda asosiy investitsion siyosat va investitsiya iqlimiga tegishlidir. Investitsiya siyosati iqtisodiyotning samaradorligining oshishi, mahsulot va milliy daromad o'sishini ta'minlanishiga bog'liq bo'lgan kapital quyilmalarning eng ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. Investitsiya iqlimi investitsiyalarga nisbatan xududda, tarmoqda vujudga kelgan vaziyatlaning ijobiylik darajasini xarakterlaydi. Amaliyot shuni kursatadiki, investorlar siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan ajralib turuvchi mamlakatlarga qiziqish kursatadilar.

Qulay investitsion iqlim birqaror siyosiy va makroiqtisodiy sharoitlarning shakllanishi, molk-mulk huquqi himoyasining yaratilishini ko'zda tutadi. Biroq birgina investitsion iqlimning yaxshilanishi xorijiy investitsiyalar hajmining shiddat bilan oshishini ta'minlay olmaydi. Rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari tajribasining kursatilishicha, investitsion iqlimning yaxshilanishi xorijiy bevosita investitsiyalar oqimining zaruriy, ammo etarli bo'lmagan shart hisoblanadi. Bu vazifaning hal etilishi xorijiy investorlar faoliyatining huquqiy asoslarni va mamlakatning xorijiy sarmoyadorlari uchun investitsiya javobgarligini oshirishga va ularning e'tiborini mamlakat xududidagi istiqbolli investitsion loyihalariga jalb etishga qaratilgan maxsus rag'batlar yaratilish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini talab etadi. Bu o'z navbatida mamlakat investitsiya jozibadorligining oshishiga ta'sir etadi. Jahon investitsiyalar bozori keskin raqobat maydoni bo'lib unda xorijiy investorlar erkin, barqaror va oldindan ko'rib bo'ladigan investitsiya rejimini taqdim etuvchi

mamlakatlar yutadi. Xorijiy sarmoyani bevosita investitsiyalar shaklida jalb etishning iqtisodiy avzalliklarini hukumatlar tomonidan anglashning o'sishi sababli 90-yillardan boshlab xorijiy investitsiyalarni tartibga solish rejimlarini erkinlashtirish jarayoni faol olib bormoqda. Mamlakatlar xorijiy investorlar uchun o'z investitsional iqlimlarni qulayroq qilish maqsadida yangi qonunchilik va tartibga solish normalarni kiritishda davom etmoqdalar. Oxirigi olti yillar davomida dunyoda xorijiy tug'ridan-tug'ri investitsiyalar (XTI)ni tartibga solish rejimlarida 1320 o'zgarishlar ko'zatildi, shundan 1190 (90%) tasi qulay investitsion iqlim yaratishga qaratilgan edi. Buni quyidagi 2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin:

2.3– jadval

INVESTITSION REJIMLARIDAGI O'ZGARISHLAR¹⁰

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2003 yil	2013 yil
O'z investitsiya rejimlariga o'zgarish kiritgan mamlakatlar soni	69	82	93
Rejimlardagi o'zgarishlar soni	150	242	205
Jumladan: - XTI lar uning yanada iulay shartlar yaratish	147	218	164
- XTI lar uchun noiulay shartlar yaratish	3	24	41

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar ham o'z iqtisodiyotiga to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun fskal moliyaviy va boshqa turdagi investitsiya rag'batlaridan faol foydalanadilar:

¹⁰ UNCTAD, World investment Report 2014: FDI from Developing and Transition Economies www.unctad.org/wir/publicatvans/pdf

– Fiskal rag’batlar: soliq ta’tillari, foyda soliq imtiyozlari, investitsiya va reinvestitsiya uchun foydalanadigan mablag’larga nisbatan imtiyozlar, tezlashtirilgan amortizatsiya rejimi, tashqi savdo imtiyozlari;

– Moliyaviy rag’batlar: boshlang’ich harajatlarning bir qismini qoplash uchun davlat subsidiyalarning berilishi, kredit kafolatlari yoki imtiyozli kreditlarning taqdim etilishi, davlat tomonidan sug’irtalashning imtiyozi shartlarini ta’minlash;

– Boshqa rag’batlar: investitsion infra tuzilmani yaratish uchun davlat xarajatlari, maxsus iqtisodiy zonalar yaratish va boshqalar.

Bunday rag’batlarni qo’llash amalda XTI bozoridagi muvaffaqiyatli raqobatning zaruriy sharti bo’lib qoldi va bular ko’pgina mamlakatlar tomonidan qo’llanadi. Bundan tashqari, O’zR rahbariyati oqilona siyosati va tegishli harakatlari natijada milliy iqtisodiyotning tarkibi tubdan uzgardi (2.4-jadval):

2.4-jadval

O’zR YaIM ishlab chiqarish tarkibi o’zgarishning dinamikasi, %¹¹

Yillar	Yalpi ichki mahsulot				
	Sanoat	Qishloq xo’jaligi	Qurilish	Xizmatlar	Sof soliqlar
1995	17,1	28,1	7,1	34,6	13,1
1996	17,8	22,4	8,2	37,2	14,4
1997	15,6	28,3	7,3	36,4	12,4
1998	14,9	26,8	7,5	36,4	14,4
1999	14,3	29,0	6,7	36,6	13,4
2000	14,2	30,1	6,0	37,2	12,5
2001	14,2	30,2	5,8	37,3	11,9
2002	14,5	30,1	4,9	37,9	12,6
2003	15,8	28,6	4,5	37,4	13,7
2004	17,1	26,8	4,5	37,6	14,0
2005	20,7	25,0	4,9	38,4	11,0
2006	22,1	24,1	5,1	39,5	9,2
2007	24,0	21,7	5,5	39,3	9,5
2008	22,3	19,4	5,6	43,3	9,4
2009	24,0	18,0	7,0	44,0	7,0
2010	24,0	17,5	6,8	49,0	2,7
2013	24,2	16,8	4,0	53,0	2,0

Manba: O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹¹O’zR Davlat statistika qo’mitasining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.
<http://stat.uz/press/1/1108/>

Investition iqlim sarmoya kiritishning imkoniyati va samaradorligini, investitsion jozibadorlik mamlakatning sarmoyani jalb qilishdagi afzalliklarni belgilaydi.

2.2. Tarkibiy o'zgarishlardagi davlatning investitsiya siyosati va uning roli

O'zbekiston o'z iqtisodiy siyosatini yuritishda bozor munosabatlariga o'tishning o'z modelini tanlagan bo'lib, udavlat tomonidan muvoffiqlashtirib turiladigan ijtimoiy yunaltirilgan xo'jalikdan iborat. Investitsiyalarning hajmi va tarkibi mamlakatdagi makroiqtisodiy muvozanatga, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi va rivojlantirishiga bevosita tasir ko'rsatadi.

Investitsiya faolligining oshishi iqtisodiy rivojlanishning ayni paytdagi bosqichi xususiyatlarini hisobga olivchi oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqishni taqazo etadi. Aynan mana shunday siyosat mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, uning ishlab chiqarish texnik salohiyatining xsishiga sezilarli tasir ko'rsatadigan samarali vositaga aylanadi.

Investitsiya siyosati, davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, quyilgan maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli, shuningdek uzoq istiqbol uchun belgilangan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Davlat investitsiya siyosatining bosh maqsadi xo'jalik subektlariningmanffatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish, xorijiy sheriklar bilan birga qo'shma korxonalar tashkil qilish va hokozolar asosida mamlakatning investitsiyasalohiyatini oshirish va undan samarali foydalanishni taminlashdir. U, birinchi navbatda investitsiya jarayonlarini davlt tomonidan boshqarilishi va qo'llab – quvvatlanishining tasirchan tizimini shakllantirish orqali respublika iqtisodiy mustaqilligining moddiy – texnikaviy bazasini mustahkamlashga ko'maklashishi darkor. SHu munosabat bilan

investitsiya siyosati ham xorijiy sarmoyadorlarning xo'jalik faoliyatini yuritish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Bunda korxonalar va ahoining investitsiya faolligini rag'batlantirishga, respublika iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni keng jalb qilishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Investitsiya siyosatini shakillantirio'da ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining xususiyatlari va darajasini, jamiyatning birinchi navbatdagi vazifalari va davlatining real iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, iqtisodiy boshqaruv usullari rolini kuchaytirish iqtisodiy rivojlanish muommolarini hal qilishda hududlar va mintaqalarning faolliyati faollashtirishni taqazo etadi. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida mamlakat iqtisodiyotida to'planib qolgan salbiy omillar tufayli, investitsiya faolliyatning keskin pasayishi kuzatildi. Bunday holatning yanada chuqirlashuviga yul qo'ymaslik va vaziyatni barqororlashtirish uchun birmuncha qulay sharoit yaratishga faqat 1990 – yillarning ikkinchi yarmida, yani iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish imkoniyati paydo bo'lgandagina erishildi.

Davlatning investitsiya siyosati O'zbekistonda islohotlarning ilk bosqichida iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o'zgartirishga, tarmoqlarga va ishlab chiqarishga kapital kiritmalar tuzilmasini o'zgartirishga yunaltirilgan edi. SHu maqsadda Davlat investitsiya dasturlari ishlab chiqildi va joriy etildi. Ushbu dasturlarga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlanish suratlarini barqororlashtirish va ularning islohotlardan oldingi darajasini asta – sekin tiklashga yordam berdi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 may 2006 y . “ Tiklanish va taraqqiyot fondini tashkil qilish to'g'risida” gi Farmoniga muofiq Vazirlar Mahkamasi tomoanidan “Tiklanish va taraqqiyotfondi faoliyatini tashkil qilish chora – taqbiirlari to'g'risida” qaror qabul qilindi. Ushbu hujjatlarga muofiq iqtisodiyotning etakchi va bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurish, mamlakatning uyg'un, barqaror va muofiqlashtirilgan ijtimoiy

– iqtisodiy rivojlanishiga erishishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek. Tarkibiy o'zgarishlar mazkur Fond orqali amalga oshirildi.

So'ngi yillarda olib borilgan investitsiya siyosati mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy va strategik maqsadlarini belgilash O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi roli va o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida strategik maqsad sifatida mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va oziq – ovqat xavfsizligini taminlaydigan asosiy tarmoqlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish deb belgilandi. Mablag'lar, biringi galda, mashinasozlik, yonilg'i – energetika kompleksi tarmoqlari rangli metallurgiya. Kimyo sanoati kabi sohalarga yo'naltirildi, yangi samarali tarmoq – avtomobilsozlikka asos solindi. asosiy tarmoqlar bilan bir qator respublika uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish majmualari – engil va oziq – ovqat sanoati ham taraqqiy etdi. Mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun transport va telekommunikatsiya tizimlari shakllantirilmoqda va ular ichki tashuvlar bilan birga yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni ham tamlamoqda.

Ayni paytda investitsiya siyosatining makrodarajadagi bosh strategik maqsadi qayta ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, mamlakat moddiy – texnikaviy bazasini mustahkamlash, uning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, umumiqtisodiy taraqqiyotga erishish (YaIM, YaIM hajmining o'sishi, yangi ish joylari sonini ko'paytirish, kiritilgan mablag'lar samaradorilini oshirish) ga qaratilgan investitsich jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solinishi va qo'llab – quvvatlanishining tasirchan tizimini yaratishdir. Makrodarajada u xo'jalik subektlari tomonidan foyda (daromad) olinishi maqsadiga bo'ysundiriladi.

Mazkr maqsadga muvofiq davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalarini quyidagicha tariqlash mumkin:

- Investitsiya faoliyatini joylashtirish uchun qulay sharoit yaratish;
- Tarkibiy o'zgarishlarni chuqirlashtirish bo'yicha maqsadga yunaltirilgan siyosat yuritish;

– Mahalliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini taminlash va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ustuvor tarmoqlarini har tomonlama qo'llab – quvvatlash;

– Investitsiya loyihalarni tanlov asosida davlat tomonidan moliyalashtirishini amalga oshirish;

– Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;

– Qurilish materiallari va pudrat ishlari bozorini rivojlantirish.

Iqtisodiyotning deyarli barcha sektorlari faoliyatining ijobiy dinamikasi YaIM hajmining ortishi va uning o'sish suratlarning barqarorlashuviga olib keldi.

Mamlakatning sanoat kompleksi ichki ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi. Respublikaning eksport salohiyati ham sezilarli o'smoqla. Hozirgi paytda O'zbekiston engil va kimyo sanoati mahsulotlarining salmoqli qismini rangli metallar va energiya tashuvchilarni eksport qiladi.

Tayyor buyumlar – ip-gazlama , paxta tolasi, kimyo sanoati mahsulotlari, turli xil xizmatlarning eksportdagi ulushi asta-sekin o'sib bormoqda. SHu bilan bir vaqtda chetdan kiritiladigan paxta tolasi ulushi qisqarib, iqtisodiy islohotlarning ilk yillarida umumiy eksport hajmining 50%ni tashkil qilgan bo'lsa, ayni paytda bu ko'rsatkich 20% ni tashkil qiladi. Iqtisodiy yangilanish yillarida elektroenergetika, neft-gaz majmuasi metallurgiya, kimyo, neftni qayta ishlash tarmoqlari, engil va oziq-ovqat sanoatikorxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash dasturlari bosqichma- bosqich amalga oshirildi. Mikroiqtisodiy darajada io'lab chiqarish jarayonlarining faollashuvi, korxonalar moliyaviy ahvolidan barqarorlashuvi kuzatildi, natijada ushbu korxonalarning o'z mablag'larini jamg'arish imkoniyati paydo bo'ldi.

2.3. Investitsiyalarning moliyaviy manbalar tarkibi va uning o'zgarishi

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalar tarkibida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Ularning umumiy hajmida byudjet mablag'larining

ulushining kamayishi tendensiyasi kuzatildi. Uning ko'rsatgichi 2000 yildagi 30,3% dan 2010 yilda 7,4% gacha kamaydi.

Shu bilan vaqtda, korxona va tashkilotlar mablag'lari ulushining ortishi 2000 yilda 27,1% bo'lsa, 2010 yilda 31,6% ni tashkil qildi, aholi mablag'lari ulushi esa deyarli o'zgarmadi va tegishli 12% va 15,8 % ga teng bo'ldi. Bu davrda bank kreditlariva va boshqa zayom mablag'lari tegishli 7,5% dan 9,1% gacha o'sdi.

2010 yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 6,0 mlrd. AQSH dollardan ko'proq hajmida investitsiyalar kiritildi. Bundan tashqari, 2008-2010 yillarning o'zida iqtisodiyotning barqaror sura'tlarda o'sishni ta'minlash, uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindiki, ular, o'z navbatida, birinchidan, Inqirozga qarshi choralar va, ikkinchidan, modernizatsiya dasturini mantiqan to'ldiradi va unda belgilangan vazifalarga mos keladi.

2.5 - jadval

O'zbekiston respublikasida 2000- 2010 yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi¹²

	2000 yil	2003 yil	2009 yil	2010 yil
Investitsiya, jami	100,0	100,0	100,0	100,0
Jumladan				
Respublika byudjuti	30,3	17,7	10,7	7,4
Korxona va tashkilotlar	27,1	41,8	48,1	31,6
Aholi mablag'lari	12,0	11,1	11,9	15,8
Bank va boshqa qarz mablag'lari	7,5	2,7	3,4	9,1
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	21,7	26,4	19,0	28,8
Byudjetdan tashqari fondlar	1,4	0,4	6,9	7,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bozor iqtisodiyoti mamlakatlari iqtisodiyotini sog'lomlashtirishning samarali vositalaridan biri mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish va iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha ochiq tashqi iqtisodiy siyosat yuritishdir.

¹² O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Respublikada xorijiy kapital ulushi 2000 yilda 21,7% bo'lgan bo'lsa, 2009 yilda 19,0% ni tashkil qildi (2.6.-jadval).

Hozirgi paytda xorijiy investitsiyalar O'zbekiston uchun birinchi navbatda qayta ishlovchi tarmoqlardagi aksariyat sanoat korxonalarining texnik va texnologik qaloqligini engish; sanoat sohasida moddiy va energetik resurslar sarfini qisqartirish maqsadida moddiy – xomashyo resurslaridan kompleks va tejamkorlik bilan foydalanishni taminlash; mahsulotning yuqori texnologik turlari.

2.6 - jadval

O'zbekiston respublikasiga ichki va tashqi investitsiyalarning nisbati¹³

	2000 yil	2003yil	2009 yil	2010 yil
Investitsiyalar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0
Jumladan				
- Ichki Investitsiya	78,3	80,7	81,0	71,2
- Xorijiy investitsiya	21,7	19,3	19,0	28,8
Ulardan				
- kreditlar	18,3	12,2	11,0	16,7
- To'g'ridan-to'g'ri investitsiya	3,4	7,1	8,0	12,1

Ulushni sezilarli ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarishning eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur.

Respublika investitsiya siyosati tarmoq jihatdan O'zbekistonning nisbatan iqtisodiy afzalliklarini ruyobga chiqarishga qaratilgan va mavjud ilmiy texnikaviy salohiyatni maksimal darajada ishga solish, eksportga yunaltilgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish, mahalliy resurslardan foydalanish sohasini kengaytirish va ularni yanada chuqurroq qayta ishlash kabi yunalishlarini o'z ichiga olgan.

¹³O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

**2000–2013 yillarda investitsion jarayonlarning asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2013
Yalpi jamg'arish normasi, YaIMga %da (so'm)	19,6	28,0	29,6	28,2	32,0	29,9	26,0	23,0
Yalpi jamg'arish normasi, YaIMga %da (AQSh doll.)	19,4	35,7	24,8	24,0	28,0	26,0	27,0	-
Asosiy kapitalni jamg'arish normasi, YaIMga %da (so'm)	22,9	19,9	19,1	20,9	25,3	26,1	24,9	23,9
Asosiy kapitalni jamg'arish normasi, YaIMga %da (AQSh doll.)	16,3	26,5	19,1	20,9	25,3	26,1	26,5	-
YaIM o'sishning capital sig'imi, (ICOR)	6,6	3,1	2,7	2,0	2,3	3,1	3,1	3,0
Markazlashgan sarmoyalar ulushi, %	55,4	23,9	22,3	17,7	19,8	20,1	18,5	17,5
Markazlashmagan sarmoyalar ulushi, %	44,6	76,1	77,7	82,3	80,2	79,9	81,5	82,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Investitsiya faoliyatining jonlantirilishi tufayli respublikada investitsiya faolligi pasayishining oldi olindi, iqtisodiy o'sishning barqarorlashuvi va uning sur'atlarining asta-sekin o'sishiga erishildi. eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar yaxshilana bordi, ularning sur'atlari ijobiy dinamikaga ega bo'ldi. Mamlakat YaIM hajmi 2000-2010 yillarda 3,5 martadan ko'pga oshdi, investitsiyalar hajmi esa 5,2 ga ko'paydi. 2007 yilda YaIM 8,5 % ko'paydi investitsiyalar hajmi 9,2 % ga.

Respublikada tarkibiy qayta tuzish choralari asosda ilmiy va texnikaviy yangiliklarga bozor talablariga tez ta'sir ko'rsata oladigan va moslashadigan ishlab chiqarishlarni yartaish maqsadida ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish, xususiy lashtirish jarayonlarini tuqurlashtirish masalalarini hal qilishga qaratilgan chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

2.8 – jadval

2000-2013 yillarda investitsion salohiyatning rivojlanish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2013
Aholi real pullik daromadlarning o'sish sur'atlari, %	126,4	116,3	124,3	121,9	124,4	128,5	127,8	123,1
Aholi daromadlardagi jamg'arish ulushi, %	2,1	17,3	17,3	18,0	16,2*	18,1	20,1	-
Aholi banklardagi jamg'armalarning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da	129,9	139,3	153,5	148,2	168,6	169,1	152,6	138,8
Bank aktivlarning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da	112,5	112,5	128,0	128,7	130,1	130,2	132,1	132,4
Bank investitsion kreditlarning ulushi, %	34,7	46,3	47,1	48,5	50,1	68,8	75,2	75,4
Davlat byudjetning jamg'arish ulushi, %	20,4	10,8	9,4	8,6	7,3	7,7	6,2	-
Iqtisodiyot tarmoqlari foydaning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da	172,6	140,4	140,9	175,6	136,6	132,3	102,7	107,8
To'lov balansning o'sish sur'atlari (savdo aylanmasi saldosi bo'yicha), %	253,6	127,0	122,1	140,7	79,0	130,4	182,0	106,4
Jamg'arilgan amortizatsiyaning o'sish sur'atlari, %	-	103,3	124,1	97,4	98,0	101,5	100,4	-

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Iqtisodiy o'sishning maksimal sur'atlarni ta'minlagan xolda mamlakatning mavjud resurs salohiyatidan yanada tuliqroq foydalanish yangi iqtisodiy tarmoq tizilmasini shakllantirishning bosh mezoni bo'lmog'i lozim.

2.9 – jadval

2000-2013 yillarda investitsion jarayonlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillarning o'zgarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2013
Asosiy kapitalning foyda normasi (rentabellik), %	19,9	7,7	8,6	12,1	-	-	-	-
Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, %	24,0	16,0	14,0	14,0	14,0	14,0	14,0	12,0
Soliq yuki, YaIMga nisbatan % da	27,9	21,6	21,2	21,7	23,2	22,5	22,0	21,9
Inflyatsiya darajasi, %	128,2	107,8	106,8	106,8	107,8	107,4	107,3	107,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

O'zbekistonning oldining to'plagan ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy va kadrlar salohiyatini hisobga olib iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar etarlicha

to'liq shakillangan ko'p tarmoqli xo'jalik majmuasini yaratishga yunatirilishi, bunday majmualarning maqsadi esa ishlab chiqarilayotgan aksariyat mahsulot turlariga ichki talabni qondirish bilan birga istiqbolli va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni o'zlashtirishga buysindirilishi kerak. bu shuni bildiradiki, yangi ishlab chiqarilishlarning paydo bo'lishi mavjudlarning yangilanishi va qayta ta'mirlanishi, oxir oqibat mahsulot turini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilashga olib kelishi lozim.

2.10 - jadval

2000-2013 yillarda asosiy kapitalga investitsyalarning qayta ishlab chiqarish tarkibi, (%)

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2013
Kapital quyilmalar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shundan:								
- yangi korxonalarni qurish	42,0	31,9	41,7	42,2	51,2	59,8	58,7	56,2
- kengaytirish, modernizatsiyalash va qayta qurish	57,5	67,3	57,1	43,5	34,1	24,9	27,6	29,5
- boshqalar	0,5	0,8	1,1	14,3	14,7	15,3	13,7	14,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Investitsion jarayonlarning rivojlanish xolati va o'zgarish dinamikasini quyidagi jadvallardan ko'rish mumkin:

2.4. Sarmoyalar jarayonlarni boshqarishda Davlat dasturlarning ahamiyati va chora-tadbirlari

Milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, jahon moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy mutanosibligi va barqaror sur'atlarini, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning etakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini

ta'minlash va eksport salohiyatini osirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PF-4058-sonli Farmoni qabul qilindi.

O'zbekistonda hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan davlatning tarkibiy investitsiya dasturlari quyidagi yo'nalishlarga qaratilishi talab qilinadi:

- Ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiyalash va uni tarkibiy qayta qurishga ko'maklashish;
- Sanoatning qayta ishlovchi sektori raqobatbardoshligini oshirish;
- Mamlakatning xo'jalik kompleksini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollashtirish uchun yetarli darajada uning texnik bazasini tashkil qiluvchi tarmoqlar quvvatini oshirish va undan ishlab chiqadigan mahsulot turini yangilash;
- Agrar sektor va unga bog'liq tarmoqlarni rivojlantirish.

Strategik davrlarda va yaqin istiqbolning keyingi bosqichlarda davlatning investitsiya ustuvorliklari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi:

- Xomashyoni yanada chuqurroq qayta ishlash va jahon andozalar darajasida mahsulot ishlab chiqarish asosida ko'p tarmoqlm majmualar barpo qilish;
- Yuqori texnologik ishlab chiqarish va zamonaviy infratuzulmani kengaytirish;
- Jahonda erishilgan texnik-texnologik darajada ustuvor tarmoqlar ishlab chiqarish infratuzulmasini qayta qirollantirish;
- Ijtimoiy infratuzulma va xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish.

Ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun davlat investitsiya siyosatini yuritishda mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish iqtisodiyot real sektorining investitsiya tashabbuslarini qo'llab quvvatlash, mahalliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyati uchun huquqiy va institutsional sharoit yaratish, soha infratuzulmasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**Mamlakatning investitsiya muhiti va uni
keltirib chiqaradigan omillar**

Investitsiya juzibadorligi omillari	Tegishli omillar mohiyatini ochib beruvchi ko'rsatkichlar
Iqtisodiy ahvoli	Mamlakat tulov balansining aholi valyuta pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanganligi ichki bozor sig'imi kattaligi inflyatsiya darajai YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ushish sur'atlari
Qonuniy baza	YAngi sharoitlarga mos keladigan mamlakat va uning alohida sohalarining ijtimoiy iqtisodiy revojlantirishini boshqaradigan farmonlar, qarorlar, nizomlar yoriqnomalarning mavjudligi.
Tabiiy xomashyo resurslari	Miniral – xomashyo, yonilg'i energetik va suv resurslari zahiralari, qishloq xo'jaligi xomashyo ishlab chiqarish hajimlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, bank aholi ulushi, ishsizlik darajasi, hizmatchilar daromad darajasi kadrlarning malaka darajasi
Ilmiy – texnikaviy salohiyat	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratiladigan investitsiyalar, jumladan xorijiy investitsiyalar hajimlari. Investitsiya tavakalchilik darajasi. Ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, yangiliklardan foydalanish va ITTQI sohani rivojlantirish ahvoli mahsulotning ilm talab va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati iqtisodiyotning rial sektori korxonalarning foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakillantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimi revojlantirish ahvoli, transport kommunikatsiya hizmatlari va mehmonxona xujaligi sahaları, tovar va fond berjalari markenting, konsaltang, auditorlik hizmatlari, sug'irta sohasi tarmoqlarining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof muhitning ifloslanish darajasi, radiatsiya fon zararli chiqindilar

Investitsiya muhitining muhim tarkibiy qismi davlatning qonunchilik bazasidir. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qaror topgan nisbatan qisqa vaqt oralig'ida ishonchli me'yoriy-huquqiy baza yaratildi.

Investitsiya faoliyatini boshqarish va qo'llab-quvvatlash tizimi ko'p sonli qonunchilik – huquqiy va meyoriy hujjatlardan iborat va quydagilarni o'z ichiga oladi: qonunlar va mamlakat Prezidenti farmonlari; respublika hukumati qarorlari va dasturlari; ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy – texnikaviy rivojlanishning kompleks va davlat dasturlari; hukumatlararo shartnomalar va bitimlar; ; yuriqnomalari, standartlari; qoidalari va h.k.

Investitsiya faoliyatiga oid asosiy hujjatlar: “Investitsiya faoliyati to'g'risida” (1998y); “xorijiy nvestitsiyalar to'g'risida” (1998y), “ Xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish kafolatlari vachoralari to'g'risida2 (1998y)4 “Tadbirkorlik to'g'risida” (1991y), “Garov to'g'risida”(1992y); “Lizing to'g'risida” gi qonunlar va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotni isloh qilishda, investitsiya qaoiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan farmonlari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

“Xorijiy sarmoyali korxonalar investitsiya faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida” (13.11.1996y); “ Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va xorijiy investorlarning respublika fond bozori ishtirokini kengaytirishning fo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida”(13.11.1997y) va boshqa formalar.

Investitsiya muhiti, birinchi navbatda mamlakatdagi iqtisodiy barqqrorlik bilan belgilanadi. Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolni tariflaydigan asosiy ko'rsatgichlar (YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning o'sishi suratlari, h.k.) ayni paytda etarlicha barqaror dinamikaga ega va qulay investitsiya muhitini shakillantirishda salmoqli kafolat hisoblanadi. Qabul qiluvchi mamlakat ichki bozori sig'imining kattaligi xorijiy investorlar uchun muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston yuqori texnologik mahmulotlarniishlab chiqarish imkonini beradigan etarlicha rivojlvngan sanoat va ilmiy – texnikaviy salohiyatga ega. Respublikada ko'p tarmoqli sanoat salohiyati, transformatorlar va akkumulyatorlar,

turli elektrotexnik buyuurlar, elektronika, liftlar, gidronasoslartraktorlar (va boshqalar) kabi ilmiy taraqqiytga asoslangan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkil qilishga erishildi.

Respublikamizda mustaqillik davrida bozor infratuzilmasi institutlarining keng tarmog'i – rivojlangan bank tizimi, fond va tovar birjalari, ko'chmas mulk birjasi, sug'irta va konsalting kompaniyalari, auditorlik agentliklari, transport tizimi, telekommunikatsiya va hokozolar yaratildi. Mustaqillik yillarida yanada jadal rivojlangan transport- kommunikatsiya, bank marketing axborot xizmatlari tadbirkorlarning ham ichki bozordagi, ham tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'sib boruvchi ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga qaratilgan.

Mehnat resurslariga kelsak, o'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining ancha qismi band emas. Respublikaning iqtisodiy faol aholisi umumiy sonidan tahminan 71% ijtimoiy ishlab chiqarishda band, bandlar umumiy sonining 77% iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasiga to'g'ri keladi¹⁴. O'zbekistonda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalarni kadrlar bilan taminlash muomosi yuq. Faqat ularning malakasi haqidagi masala ko'tarilishi mumkin, lekin uning echimi murakkablik to'g'dirmaydi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, xorijiy kapitalning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotidagi bozor va tarkibiy o'zgarishlaridagi ishtirokining eng maqbul shakli to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalardir.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapital quyilmalardagi taqchillikni qoplabgina qolmay, yangi bozorlar, ishlab chiqarishning tashkil qilishning ilg'or usullaridan keng foydalanish, muhnat va boshqaruv tajribasini olttirishga imkon beradi va mamlakatning qarz majburiyatlarini oshishga olib kelmaydi.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardan oqilona foydalanilganda ishlab chiqarish jarayonlarining jonlanishi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini ishga solish darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

¹⁴ Yusupova N.M., Maxmudov Ye.A. Davlatning investisiya siyosati...- T., 2006,31 b .

Albatta, xorijiy investitsiyalar asosan davlat kafolati bilan jalb qilinishi bois, talay tashkiliy – iqtisodiyishlab chiqarish – texnikaviy va ijtimoiy muomolarni echish immkonini beradi, mamlakatning anchagina tashqi qarzini qamraydi. Asosiy qarzni qaytarish va qarz majburiyatlari bo'yicha foizlar to'lash esa mamlakatning davlat byudjeti zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushadi. SHu bois. Mamlakat o'z moliyaviy ahvolini barqarorlashtirib olgandan so'ng investitsiya siyosatini xorijiy kapitalni jalb qilish suratlarini jadallashtirishga emas, balki asosan to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yunaltirish lozim.

Investitsiya muhiti xorijiy tadbirkorlar faoliyati uchun maqsad va shuning asosida ularga nisbatan munosib ijobiy munosabatni shakllantirish imkonini beradi. U sarmoyador kapital kiritish haqida qaror qabul qilishda hisobga oladigan shart – sharoitlarni o'zichiga oladi. Sarmoya iqlimi qanchalik noqulay bo'lsa, investor uchun tadbirkorlik tavakkalchilik shunchalik yuqori, ishlab chiqarish chiqimlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Shunday qilib, davlatning investitsiya sohadagi siyosatini shakllantirishga konseptual yondashuvni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillardan kelib chiqish maqsadga muvofiq:

I. Qulay sarmoya muhitini yaratish bo'yicha:

- Investitsiya foliyatni davlat tomonidan tartibga solinishining amaldagi dasturlari samaradorligini oshirish – mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay meyoriy – huquqiy tartibni saqlab turish kafolati siqatida;

- Mulk shaklidan, qaysi tarmoq va mamlakatga tegishli bo'lishidan qati nazar, barcha investorlarga teng raqobat sharoitlarini yaratish, beznes ishlariga ortiqcha aralashish amaliyotdan voz kechish;

- Sarmoya bozorning milliy iqtisodiyot mablag'larini ishlab chiqaruvchi investitsiyalarga samarali aylantirishni taminlaydigan zamonaviy investittsional infrotuzilmasini qaror topishga ko'maklashish;

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va sarmoyalash kapitalni olib chiqib ketish va uni xorijda aylantirish jaroyonini boshqaruvchi huquqiy mexanizmlarni ishga tushirish;

- Sarmoyadorlarning investitsiyalash obektlari haqida ishonchli axborotni olishni ta'minlash.

II. Davlat tomonidan investitsiyalash quydagilar hisobga olinishi kerak:

- Investitsiya faoliyatining ijtimoiy yunaltirilganligi kuchaytirish, ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash ta'lim va ilm fan soxalaridagi muammolarni xal qilishda "insoniy kapital" ga sarmoya kirishni ustuvor deb belgilash;

- Iqtisodiyotning nodavlat sektori sarmoyalarning mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy revojlantirishning ustuvor vazifalarni hal qilishga jalb qilishni rag'batlantirish;

- Strategik ahamiyat ega infratuzilma ob'ektlarning davlat tomonidan qo'llab – qo'vvatlanishining ustuvorligi, bunday ob'ektlar butun milliy xo'jalikning va onnovattsion – texnologik olg'a siljishni ta'minlovchi loyxalarning barqaror amalga qilishni belgiyadi;

- Davlatning investitsiya majburiyatlarining tasdiqlangan byudjet doirasida so'zsiz bajarilishi;

- Kapitalni jalb qilish va uning iqtisodiyot sektorlari o'rtasida taqsimlanishning samaraliy mexanizimi rolini bajara oladigan ma'lumotning jaxon kapital bozoridagi mavqiyini kuchaytirishga yordam beradigan fond bozori modilini shakillantirish;

- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat mintaqalari va tarmoqlari o'rtasida oqilona taqsimlash;

- Investitsiya tavakkachilikdan sug'urtalash tizimini yaratish;

- Qurilish kompliksi tarmoqlarining investitsiya faolligiga hamda loyxaviy va pudratchilik qurilish ishlari bozorlarini tashkil qilishga ko'maklashish.

III. Sarmoya siyosatining tarmoqli tomoni O'zbekistonning qiyosiy ustunliklarini amalga oshirishga, uning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi quydagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va mamlakatning eksport imkoniyatlarini revojlantirishni nazarda to'tilgan eksportga yunaltirilgan va emport o'rni bosuvchi ishlab chiqarish modellarini oqilona uyg'unlashtirishni ta'minlash;

- Iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlovchi va uning eksport salohiyatini oshiruvchi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishning barqaror sur'atlarini saqlab turish;

- Birlamchi resurslarni yuqori darajada qayta ishlashga bog'liq tarmoqlarni qo'llab – qo'vvatlash va tayyor buyumlar ishlab chiqarish;

- Yuqori texnologik va ishlab chiqarishlar (energetika, radioelektronika, kimyo va neft kimyo sanoati, avtomobil – va samalyot sozlik va kommunikatsiya va h.k.) ni yaratish va rivojlantirishga davlatning muvofiqlashtiruvchi va qo'llab turuvchi ta'siri;

- Respublikaning turistik salohiyatidan yanada to'liq foydalanish sayoxlik turlarini rivojlantirish, hususiy turizim sektorini revojlantirishni rag'batlantirish buyicha choralar ko'rish;

- Respublika hududi orqali tranzit yuk oqimlarini ko'paytirish hamda transport va boshqa infratuzilmasidan to'liq foydalanish.

IV. Iqtisodiyot xususiy sektorining investitsiya faoliyatini qo'llab-qo'vvatlash borasida quydagilar amalga oshirilishi lozim:

- Korxonalarni qayta tashkil qilish soliq yukini kamaytirish investitsiya qayta qurish vazifalarga mos ravishda takomillashtirish orqali korxonalarning investitsiya salohiyatini oshirish;

- Amaldagi korxonalarning modernizatsiyasi uchun talab qilinadigan zamonaviy texnologik uskunalarni olib kirish uchun tashqi savdo va soliq rejimlarni lebirallashtirish;

– Tadbirkorlarni qiziqtirgan tovarlarga talab va taklif buyicha ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va joriy etish.

V. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar respublika iqtisodiyotining investitsiya ehtiyojlarini qondirishning muhim manbayidir. Ishlab chiqarishni texnologik yangilash majmuasini xususiy tarzda hal qilish bilan birga to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligiga integratsiyalashuviga yordam beradi. Bundan tashqari, to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiyalar davlat qarzining ko'payishiga olib kelmaydi va mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solmaydi. Milliy iqtisodiyotning samarali revojlanishi uchun investitsiya faoliyatining barcha shakllarni maqbul tarzda muvofiqlashtirish va ulardan samarali foydalanish lozim. Bu esa, O'zbekistonga xalqaro mehnat taqsimotida o'zaro manfaatli shartlarda ishtirok etish va bunda o'z milliy manfaatlarni ham boshqa mamlakatlardagi sheriklari manfaatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

II-BOB BЎЙИЧА ХУЛОСА

1. O'zbekiston Respublikasi demokratik bozor iqtisodiyotini shakllantirish tomon yo'l olib, jahon xujaligi munosabatlariga, xalqaro investitsion hamkorlik jarayoniga tobora chuqurroq qushilmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish va faol investitsion faoliyatning zarurligini belgilab beradi. Keng kulamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, strategik maqsadlarni ko'zlaydi va olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston islohotlar modeli o'z samaradorligini ko'rsatib bormoqda.

2. Zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar ham o'z iqtisodiyotiga to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun fiskal moliyaviy va boshqa turdagi investitsiya rag'batlaridan faol foydalanadilar:

– Fiskal rag'batlar: soliq ta'tillari, foyda soliq imtiyozlari, investitsiya va reinvestitsiya uchun foydalanadigan mablag'larga nisbatan imtiyozlar, tezlashtirilgan amortizatsiya rejimi, tashqi savdo imtiyozlari;

– Moliyaviy rag'batlar: boshlang'ich harajatlarning bir qismini qoplash uchun davlat subsidiyalarning berilishi, kredit kafolatlari yoki imtiyozli kreditlarning taqdim etilishi, davlat tomonidan sug'irtalashning imtiyozi shartlarini ta'minlash;

– Boshqa rag'batlar: investitsion infra tuzilmani yaratish uchun davlat xarajatlari, maxsus iqtisodiy zonalarini yaratish va boshqalar.

3. O'zbekiston o'z iqtisodiy siyosatini yuritishda bozor munosabatlariga o'tishning o'z modelini tanlagan bo'lib, udavlat tomonidan muvoffiqashtirib turiladigan ijtimoiy yunaltirilgan xo'jalikdan iborat. Investitsiyalarning hajmi va tarkibi mamlakatdagi makroiqtisodiy muvozanatga, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi va rivojlantirishiga bevosita tasir ko'rsatadi.

4. Investitsiya muhiti xorijiy tadbirkorlar faoliyati uchun maqsad va shuning asosida ularga nisbatan munosib ijobiy munosabatni shakllantirish imkonini beradi. U sarmoyador kapital kiritish haqida qaror qabul qilishda hisobga oladigan shart – sharoitlarni o'zichiga oladi. Sarmoya iqlimi qanchalik noqulay bo'lsa, investor uchun tadbirkorlik tavakkalchilik shunchalik yuqori, ishlab chiqarish chiqimlari shunchalik ko'p bo'ladi.

III – BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TARKIBIY O'ZGARISHLARNING STRATEGIYASI VA AMALGA OSIRISH MEXANIZMI

3.1. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omillari

Tarkibiy tuzilish iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishi, uning samarali va barqaror o'sishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Janubiy-sharqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlardagi ishlab chiqarishning jadal o'sishi eng avvalo ushbu mamlakatlar uchun yangi noan'anaviy bo'lgan tarmoqlarni tezlik bilan rivojlantirish, ya'ni milliy iqtisodiyot tuzilishini keskin o'zgartirish natijasida ro'y berdi.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi turli soha va tarmoqlarning nisbatini namoyon etib, ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shakllanadi. Mazkur tuzilmaga fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va boshqa omillarning ta'siri ostida ro'y beruvchi miqdoriy va sifat o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- mamlakatning tabiiy-geografik va geosiyosiy jihatdan joylashuvi;
- tarkib topgan bozor kon'yunkturasi;
- bozorlarning monopollashuv darajasi va sig'imi;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va o'rni;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanganlik darajasi;
- fan-texnika taraqqiyotning rivojlanish sur'atlari, tavsifi va miqyosi;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarning sifati;
- hududning maydoni va infratuzilma bilan ta'minlanganligi;
- ekologiya holati.

Shuni ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasining samarali shakllanishi va rivojlanishi uchun uning turli qismlari o'rtasida mutanosiblik ham mavjud bo'lishi kerak.

Milliy iqtisodiyotning mutanosibliklari eng avvalo yuqorida aytib o'tilgan omillar ta'siri ostida ob'ektiv tarzda shakllanadi. Mazkur mutanosibliklarning tarkib topish jarayoni ayni paytda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarish va siljishlar, ijtimoiy ishlab chiqarish hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga turtki beradi.

Biroq, iqtisodiy mutanosibliklar har doim ham o'zidan-o'zi, mustaqil ravishda samarali va oqilona tarkib topish xususiyatiga ega emas. Bunga ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv tavsifdagi omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Shunga ko'ra, iqtisodiy mutanosibliklarning tarkib topish jarayonini tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiy islohotlar orqali asta-sekin muhim mutanosibliklar shakllantirilishi respublika yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 24,2 foizga yetgan.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishning qariyb 70 foizini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarini diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan ulkan e'tibor eksport hajmi, uning tarkibi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Eksportning Tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos

bo'ldi. Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi¹⁵.

2011 yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

Mustaqillik yillarda davlat byudjeti xarajatlarning tarkibi ham sifat jihatidan o'zgardi. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini muhofaza qilishni amalga oshirishni moliyalashtirish asosiy o'rin tutadi. Tarkibiy o'zgarishlar, natijada ijtimoiy sohani ham qamrab olib, aholini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan xarajatlar ulushi 1990 yildagi 31,5 foizdan 2000 yilda 42,5 foizga va 2010 yilda 59 foizga izchil o'sdi. Shuni aytish joizki, 2011 yilda davlat byudjetning xarajatlar qismi 2010 yilga nisbatan 25,4 foizga, 2000 yilga nisbatan esa qariyb 17,8 barobar o'sdi. Byudjetning umumiy xarajatlar tarkibida 58,7 foizi ijtimoiy sohani moliyalash va aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Milliy iqtisodiyotning o'sishini oshirish innovatsion jarayonlarini faollashtirish bilan uzviy bog'liq. Bular - ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etish, eng yaxshi iste'mol xususiyatlariga ega hamda ichki va tashqi bozorlarda xorijiy shu kabi mahsulotlar muvofaqiyatli raqobatlasha oladigan innovatsiya mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirishdir. SHuning uchun innovatsiyaning faoliyatini makro darajada tizimini boshqarishga bog'liq masalalar buyicha qarorlar qabul qilish darajasida ham nihoyatda dolzarbdir.

So'ngi yillarda O'zbekistonda innovatsiya seklini markalashtirmasdan tashkil qilishning yangi shakli va usullari paydo bo'lmoqda. Yangi bug'imga yuzaga kelishining jadal jarayoni kechmoqda, uning asosiy vazifasi injenering va joriy ishlarni bajarishdir. Yangiliklarni kiritishda "tadbirkorlarcha" yondoshuv tobora keng tarqalib bormoqda, bunda kashfyotchilarning yangiliklarni ishlab chiqish va joriy qilish buyicha ishlarning rahbariga aylanmoqda.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga prognozlarini. - T.: "O'zbekiston", 2011. B. 59-61.

3.1. – jadval

Taqdim etilgan ixtirolarning O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi¹⁶

Tarmoqlar	2003 yil	2010 yil
Jami:	2114	2873
1. Engergitika	26	54
2. Neft – gaz qazib olish sanoati	221	334
3. Mashinasozlik	198	223
4. Uskunasozlik	74	92
5. Elektronka va elektro texnika	86	111
6. Metallurgiya	116	197
7. Geologiya sesmologiya	78	112
8. Kimyo biokimyo	226	281
9. To'qimachilik sanoati	114	198
10. Paxta tozalash sanoati	76	118
11. Qurilish va qurilish materiallari	112	164
12. Oziq-ovqat sanoati	236	284
13. Tibbiyot va tibbiyot texnika	225	248
14. Farmatsivtika	114	152
15. Qishloq xo'jaligi	98	114
16. Transport	76	116
17. Boshqalar	38	75

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Oxirgi mahsulotning raqobatbardoshligini yanada kengroq ta'minlashning zarur sharti inovasiya faoliyati boshqarishni, aqliy faoliyat natijasini xalqaro bozordagi keskin raqobatga dosh bera oladigan tovar darajasiga olib chiqish mexanizimini takomillashtirishdan iborat. SHu munosabatlar bilan, milliy kashfiyotchilarning faoliyati oshirish muammosi dolazarblik kasb etadi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ro'yxatga olingan ixtirolarning taqsimlanishi 3.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Jadvalda ko'riladikiy taklif qilingan ixtirolarning aksaryat soni neft-gaz qazib chiqarish sanoatiga (11,6%) yunaltirilgan. Arizalarning soni umuman iqtisodiyot buyicha 1,3 marta oshgan. Bu narsa inavatson faollikning usishdan dalolat beradi.

¹⁶ Davlat Patent idorasi materiallari asosida hisoblab chiqilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri yangicha yondoshuvini taqozo etadi. Uning xususiyati va tamoili ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni markazlashtirilmagan tashkil qilinishidir. Bunda asosiy e'tibor qonunchilikda belgilab berilgan o'z – o'zini tashkil qilish tamoiliga qaratilishi lozim bu esa boshlang'ich tadqiqot jamoasi rolining o'zgarishiga olib keladi. Ilim – fanning tashkiliy tarkibidagi bosh bo'g'in institut emas balki kankret muammoni ishlab chiquvchi tadqiqot jamoa bo'lishi kerak.

O'zbekiston sharoitida inovatsion korxonalarning muvofaqqiyatli faoliyatini ta'minlash ishida quydagi vazifalarni hal qilish katta ahamiyat kasb etadi:

- Butun inovatsiya faoliyatining ist'emo'chi ehtiyojlariga buysinadi;
- Innovatsiya jarayonini tezlashtirish maqsadida boshqarmada darajalar sonini qisqartirish;
- Yangiliklarni ishlab chiqarish va joriy etish muddatlarini qisqartirish;
- Ko'proq mahalliy menejerlarning malakasiga bog'liq bo'lgan, yangiliklarni izlash va o'zlashtirishga mo'il muhitni yaratish.

Respublikamizda hozirgi iqtisodiy sharoitlardan kichchik tadbirkorlik tizimlari doim ham erik tashkilotlar bilan hamkorlik qilmasdan yangi mahsulot ya'ni texnologiyalarni ishlab chiqishga qodir bo'lmaydi.

Respublikada paydo bo'layotgan inovatsion firmalarning boshlang'ich kapitali aqliy resurslardan iborat. Ular shaxsiy texnik quvvatlarga ega bo'lmay, o'zgaruvchandir. Bu narsa ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishda juda qimmatli hususiyat hisoblanadi. Bular O'zbekistonda masalan kompyuter savodxonligiga urgatuvchi, dasturiy vositalarni yaratish buyicha firmalar, xo'jalik hisobidagi uzliksiz ta'lim markazlaridir.

Konsalting inovatsion firmalar katta imkoniyatlarga ega. Bunday firmalarning asosiy maxsulot – turli xilagi ma'ruzalar shaklini olgan g'oyalardir: istiqbollar (prognozlar) loyxalarni baholash takliflar, rejalar, statistik ma'lumotlar va hakoza.

Ilmiy mehnatning intellektual maqsadi o'z xususiyatiga ko'ra moddiy maxsulotning sifat va miqdor xususiyatlarida aks etadi. Ishlab chiqarishda istemol qilingan ular amartizatsiya qilinmaydi, o'z qiymatini tayyor maxsulot qiymatiga bulaklab o'tkazmaydi, aylanma fondlar kabi momilaga kirishmaydi.

Bugungi kunda mahalliy ilmiy-texnikaviy mahsulot mualliflari chet el bozorlari tomon ilk qadam qo'ymoqda. Misol tariqasida, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi quyosh fizikasi instituti tomonidan ishlab chiqilgan portativ uskunalar tizimi qator mamlakatlar tomonidan sotib olinmoqda va quyosh energiya texnologiyasi keng tarqalmoqda. Boshqa misol rangli metallurgiya sanoat tekshirish ilmiy institutining ilmiy ishlanmasi innovatsion sikilning barcha bosqichlaridan o'tkazildi. Loyxa natijasi yangi texnologiya yaratish va uni Olmaliq kon metallurgiya kombinatidagi ishlab chiqarish jarayonida joriy etishdir. Tegishli texnologiya xorijiy sheriklar tomonidan tan olindi va ularda qiziqish o'yg'otdi.

Statistika ma'lumotlariga qaraganda 2010 yilda 434 ta tashkilot ilmiy tadqiqot va ishlanmalar olib bordi. Jumladan, qishloq va suv xo'jalik tizimlarda – 85, “o'z arxiv” agentligida – 67, sog'liqni saqlash tizimida – 34, fanlar akademiyasida – 51, oliy ta'lim vazirligida – 40 ta. Ishlanmalarning katta qismi ilmiy tadqiqot tashkilotlari tomonidan bajarildi. (184ta)¹⁷. 2005-2007 yillarda umumiy xarajatlar hajmda byudjet mablag'lar 4,6 % tashkil qildi¹⁸. Shunday qilib, davlat asta sekin ilmiy-texnik dasturlardagi o'z ishtirokini kamaytirib bormoqda va ilmiy – tadqiqot tashkilotlarni faoliyati o'z mablag'lari, ichki va tashqi sarmoyalar investitsiyalaridan foydalanishga yunaltirilmoqda.

Ammo ekspertlarning fikricha, ... “xususiy sektor faqat o'z mablag'lari hisobiga raqobat bardoshlikni ta'minlovich innovatsiyalarning to'liq va mustahkam mexanizimini yarata olmaydi. Xukumatning maqsadga yunaltirilgan va kompleks innovatsiya¹⁹.

¹⁷ Ilmiy texnik salohiyatining asosiy ko'rsatkichlari. Statistik axborotnomasi. T., 2008. 6-b.

¹⁸ Usha yerda. 17 b.

¹⁹ Nomozov O. Iqtisodiy axborotnoma, 2006, №1. 18-22 bb.

Innovatsiya muhitni revojlantirish davlatning turli yunalishdagi sayi-harakatini taqozo etadi. Avvalom bor e'tibor quydagi muammolarga qaratilishi kerak:

- Korxonalar uchun yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazishning yuqori tavakkalchiligini, ayniqsa kichik korxonalar uchun;
- Innovatsion ishlanmalar va ularni joriy qilish uchun o'z resurslarini taklif qiluvchi va moliyaviy investitsiya institutlarining bozorining yo'qligi;
- Ilm fan ishlab chiqarish ilm bilan bog'laydigan innovatsion vositalar tarmog'i etarlicha revojlantirilmaganligi;
- Raqobat muhiti mahalliy korxona innovatsiyalarni joriy etish rag'batlantirilmaydi;
- Beznisni tashkil qilishda ananaviy yondoshuvlarining saqlanib qolishi, ya'ni mablag'larni namunaviy tovarlarni ishlab chiqarishga sarmoya qilish.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni revojlantirish uchun sharoij yaratish maqsadida davlat quydagilarni amalga oshirish lozim:

- Xususiy tashabbuskorlikni innovatsion tadqiqotlarga qaratuvchi qulay bezni muhitni shakillantirish maqsadida iqtisodiy siyosat va texnikaviy islohatlar siyosatini optimallashtirish;
- Mikro-, mezo- va mintaqaviy darajalarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashish.

Mazkur vazifalarni hal qilish jarayonida tadbirkorlar va tovar ishlab chiqaruvchilar beznisini tashkil qilishni ananaviy modilidan innovatsion modiliga o'tishni qo'lga kiritadilar.

Korxonaning standartlar va sifatga munosiblik sertifikatlarini rasmiylashtirishdagi harajatlardagi kamaytirish shuningdek bu ishlarni soddalashtirish innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning muhim shartidir. Sifat sertifikatiga ega bo'lish korxonaning majburiy emas balki ixtiyoriy ishi bo'lmog'i lozim.

Innovatsiya faoliyatini rivojlantirishga yangicha rivojlanishni joriy etish uchun quydagi tamoillarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

- Raqobat bardosh imkonini beradigan fan sig'imi yuqori bo'lgan yuqori texnologiyalarni joriy etish;

- Sanoatda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning yangi vositalarni yaratish (shartnoma, grant kelishuvi);

- Ilmiy tadqiqot faoliyatini sarmoyalashni bilvosita rag'barlantirish usullarini rivojlantirish davlat ilmiy tadqiqot va ilmiy muassasalarni litsenziyalash jarayonini moliyaviy qo'llab – qo'vvatlash, soliq imtiyozlari, pasaytirilgan kredit stavkalari buyicha qarz berish;

Iqtisodiyotni hozirgi bosqichda innovatsion revojlantirishning davlat tomonidan boshqarilishi ob'ekt va sub'ektlar emas jarayonlar darajasida amalga oshirilishi kerak. Bu tarkibiy ishlab chiqarishga tizimliy yondoshuviga taqozo etadi. Hamda jismoniy va yuridik shaxslar ilmfan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohalaridag aqliy faoliyatni institutsional – huquqiy va ijtimoiy moliyaviy boshqarishni shakllantirish bilan bog'liq. Bunday asosda kichik korxonalar uchun soliq imtiyozlari, joriy etish nodavlat tashkilotlarni maqsadli qo'llab – qo'vvatlashni fundamental va amaliy tadqiqotlarni davlat tomonidan boshqarilishi bilan uyg'unlashtirish.

3.2. Mintaqalarni rivojlantirish va sanoati tarmoq tarkibining investitsiyaviy-innovatsion strategiyasi

Mintaqa xo'jaligi iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va hudud ishlab chiqarish kuchlarini o'zida mujassam etadi. Shu sababli iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tarkibi nisbati masalalarini o'rganish katta ahamiyatga ega.

Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining markazida joylashgan aholisining soni va sanoat ishlab chiqarishi jihatidan mamlakatimizning yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar viloyat sanoati ishlab chiqarishi hajmining keyingi 12 yil davomida 20 barobar ortganligini ko'rsatmoqda²⁰. Mintaqa sanoatidagi tadrijiy o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq : xizmatlar sohasi hajmi va ahamiyati roli va o'zni ortib bormoqda, undiruvchi sanoat tarmoqlarining salmog'i kamayib, agrar soha tarmoqlari asosida uning mahsulotlarini qayta ishlash darajasi ko'paymoqda.

Hudud iqtisodiyoti tarmoq tarkibining takomillashuviga ilmiy-texnika taraqqiyotining ta'siri ortib bormoqda. An'anaviy tarmoqlar yo'qolib, yangi tarmoqlar paydo bo'lmoqda (masalan, avtomobilsozlik).

Iqtisodiyotning tarmoq tarkibi quyidagi yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Ishlab chiqarish texnologiyasi tubdan takomillashmoqda.
2. Ishlov beruvchi tarmoqlar undiruvchi tarmoqlarga nisbatan jadal rivojlanmoqda.
3. Hudud iqtisodiyotida ilm sig'imi yuqori tarmoqlarning ulushi ko'paymoqda.
4. Xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar sub'ektlari soni ko'payib, viloyat YaHMidagi salmog'i ortib bormoqda.

Samarqand viloyati sanoatining tarmoq tarkibi so'nggi yillar davomida ancha takomillashib, bugungi raqobat shart-sharoitlariga moslashib bormoqda. Agar oziq-ovqat sanoatining viloyat sanoati tarmoq tarkibidagi ulushi 2000 yilda 50,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib, 44,3 foizga kamaydi. Ushbu tarmoqda modernizatsiya jarayonlari ancha faol kechmoqda. Masalan, 2000 yilda oziq-ovqat sanoatida bandlarning ulushi 33 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2011 yilga kelib 25,3 foizga kamaydi.

Hozirgi davrda o'zida innovatsion rivojlanishi elementlarini mujassamlovchi zamonaviy tarmoqlarning rivojlanishi va sanoat tarkibidagi ulushining yuqori bo'lishi esa ijobiy holat bo'lib hisoblanadi. Masalan, 2000 yilda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatning salmog'i atigi 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011

²⁰ Egamberdiyeva U.T. Mintaqa sanoati tarmoq tarkibini takomillashtirish yo'llari. /Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish... - T., 2013. 272-274 b.

yilga kelib bu ko'rsatkich 15 foizga ko'tarildi. Tarmoqda band bo'lganlar soni esa deyarli o'zgarishsiz qolganligi esa bu borada ta'sirchan chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zR Prezidentining tashabbuslariga ko'ra, mamlakat sanoatini jadal rivojlantirish borasidagi istiqbol (2011-2015 y.) dasturining ishlab chiqilishi ushbu sohadagi ijobiy modernizatsiyalash jarayonlarni boshlab berdi.

Sanoatning innovatsion va zamonaviy turlaridan biri elektroenergetika hisoblanadi. Samarqand viloyatida innovatsion loyiha asosida muqobil quyosh energiya energetik yirik korxona (stansiya) qurishga muljallangan.

Viloyat sanoati tarkibini tahlil etish bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkoniyatini berdi:


- sanoat tarkibida yuqori texnologiyaga asoslangan, mahsulotlarga chuqur ishlov beruvchi tarmoqlarning ulushini ko'paytirish;
- viloyatda ilm sig'imi yuqori bo'lgan va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tarmoqlarning ulushini yanada oshirish.

Texnik o'zgarishlarga moslashish sur'atlari mintaqa raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi ayrim hududlar uchun (Toshkent viloyati va shahri, Navoiy, Farg'ona, Andijon viloyatlari) uchun raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida texnologiyalarni rag'batlantirish investitsiya–innovatsiya strategiyasini qo'llash lozim.

Zamonaviy mintaqaviy siyosatning boshqa strategiyasi xizmatlar sohasini rivojlantirishga turtki berish mumkin.

Mintaqani rivojlantirish juda samarali investitsiya-innovatsion rivojlantirish strategiyasi tajovuzkorlik darajasi buyicha farq qilishi yoki mudofaa tusiga ega bo'lishi mumkin.

Investitsiya strategiyasining taqlidiy modeli texnologik etakchilar tomonidan foydalanilgan yoki ishlab chiqarilgan texnologiyalar va maxsulotlarning xuddiy usha turini yoki modifikatsiyasini investitsiyalashning joriy etilishini nazarda tutadi.



Rasm 3.1. Yengil va oziq-ovqat mahsulotlarni odam boshiga hisobida ishlab chiqarish bo'yicha O'zR mintaqalarning reytingi

Taqlidiy modeldan foydalanish bozorni sust o'zlashtirilishga asoslanishi mumkin. buning sabablari turlicha ammo aksariyat xollarda mintaqalarning molyaviy o'jzligiga bori taqaladi.

Ayrim tadqiqotchilar, taqlidiy stratigiyaning quydagi ko'rinishlarini ajratadi:

1. Jahon bozorlariga chiqish maqsadida ilg'or ilmiy texnik ishlanmalarga tayanib texnologik olg'a siljishga qaratilgan "Ptonercha" modrinizatsiya;
2. Ikkin turdagi "etib oluvchi" modrinizatsiya. Ular halqaro miqyosida raqobatbardoshligiga erishishga qaratilmagan.

Taqlidiy stratigiyaning samaradorligi, amaliy ahamiyatga egaligi va davomiyligidan dalolat beruvchi jihati shuki, u "yaponcha iqtisodiy mujiza" ning asosiy shartlaridan biri bo'lgan.

Mintaqaning rivojlanishining innovatsion stratigiyasi bozorlar va texnologiyalarni shakillantirish maqsadida yuqori keskinlik darajasiga ega innovatsiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutudi.

Investitsiya – innovatsiya strategiyasi murakkab tashkiliy jarayon bo'lib, har tomonlama tavakalchilik bilan bog'liqdir. Mintaqaning ushbu strategiyasini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot firmalari va bo'linmalarning xizmatlaridan foydalanishdan turli variantlari vinchur strategiya deb ataladi. Ushbu usulning o'ziga xosligi shundan iboratkiy, u kapitalning turli shakillari: aksionerlik, ssuda, tadbirkorlikning uyg'unligidan iborat.

3.3. Iqtisodiy o'sishda patent, litsenziya va sertifikatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Litsenziyalash mazmunini anglash uchun uning patent bilan o'xshash va o'xshamaslik tomonlarini va xossalarni aniqlash kerak.


Patent (lotincha patens (patents) – ochiq oydin bo'lgan) – tegishli davlat idorasi tomondan kashfiyotchiga beriladigan va foydalanish huquqini himoya qiladigan ma'muriy guvohnoma.

Patent alohida shaxsga yoki tashkilotga (firma, kompaniyaga) berilishi mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda patent odatda 15-20 yilga beriladi. Shu muddat ichida foydalanish uchun patent egasi ma'lum tegishli pullik to'lovini to'lashi kerak.

Patent faqat berilgan mamlakati hududida amal qilinishi mumkin.

Globalashuv sharoitida 1973 yilda 14-ta G'arbiy Evropa mamlakati maxsus Konvensiyani imzoladi. Uni asosida “Evropa patent byurosi” degan tashkilot tashkil qilindi. Maqsad – patent egasi agar ushbu tashkilotdan patentni olgan bo'lsa shu 14-ta mamlakat ichida usha patentni qo'llashi mumkin.



3.2-Rasm. Rivojlangan mamlakatlarning sanoatlari YaIM dagi ulushlari (%)²¹

Patentni qo'llash degani – demak, yoki o'zi ishlab chiqarishni tashkil qiladi, yoki to'lig'icha patentni sotadi, yoki litsenziya sotish orqali faqat qisman patentni sotishi mumkin.

Agar litsenziya boshqa mamlakatga sotilsa, usha mamlakatda tegishli patent boshqatdan ro'yhatdan o'tkazilib beriladi.

Hozirgi zamonda patent – bu raqobat borasida juda muhim va kuchli qo'rol hisoblanadi. Sababi – monopoliya patentlarni sotib olishi va egalik qilish orqali mintaqa yoki jahon miqyosida o'zining texnik va texnologik ustunligini ta'minlaydi. Chunki patentga egalik qilish yo'li orqali ma'lum bir monopoliya yoki mamlakat yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishiga to'sqinlik yaratadi.

Dunyoda eng ko'p xorijiy patentlarni AQSh mamlakati qabul qilmoqda – yilda o'rtacha 50-60 migtagacha.

Agar yangilik ma'lum bir korxonada kashfiyotchi tomondan yaratilgan bo'lsa va ular o'rtasida tegishli shartnoma mavjud bo'lsa yoki kashfiyot

²¹ A.P. Oleynik «Strani mira v sifrax/2012»

topshiriqni bajarish jarayonida yaratils – bu holatda patent qo'shma tarzda kashfiyotchiga va korxonaga (firma, kompaniyaga) beriladi.

Umuman olganda, patent – bu tovar, ma'lum bir mol-mulk. Uni tegishli bozori mavjud, va jahon miqyosda bu bozor juda ham chaqqon va katta xajmiga ega.

Litsenziyalash sohada qator muammolar mavjud. Licentia – (lot, erkinlik, huquq – manoga ega) – tegishli davlat idorasi tomonidan beriladigan ma'lum bir xo'jalik faoliyatni yuritish uchun ruhsatnoma.

Ko'pchilik mamlakatlarda yangi korxona, zavod qo'rish uchun litsenziya olish orqali amalgam oshiriladi. Su narsa hudud va mintaqalar o'rtasida ishlab chiqarish kuchlarni oqilina taqsimlash uchun zarur.

Demak, litsenziyalashning asosiy vazifasi – bu xo'jalik faoliyatni oqilona va samarali boshqarish hisoblanadi.

Litsenziyalashning yana bitta muhim vazifasi mavjud – bu tashqi savdoni tartibga solish va unumli boshqarish. Bu ma'noda, litsenziya – bu tovarlarni tashqi bozorga chiqarish yoki kiritish uchun muljallangan va import yoki eksport qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli davlat idorasi tomonidan beriladigan xujjat. Litsenziyalarning turlariga kelsak, tashqi savdoga oid bo'lgan ikki tur litsenziyalari mavjud:

1-turi. Ochiq umumiy (generalniy) litsenziya – bu ommaviy matbuotda mollarni (tovarlarni) olib kirish yoki chiqarish ma'lum bir muddatga (chorak, yarim yillik, yillik) bo'lgan e'lon qilingan ruhsat. Ushbu ochiq general litsenziyaning ro'hatiga kiritilgan tovarlar tusiqsiz olib chiqarilishi yoki kiritilishi mumkin.

2-turi. Qolgan mollarga – individual litsenziya olinadi. Ushbu litsenziya alohida tadbirkor tomonidan alohida tovarga olinadi.

Litsenziyalash jarayon sifatida. Litsenziyalash – bu davlat tomonidan tadqiqot, xo'jalik (masalan, tashqi savdoni) faoliyatlarni tartibga solish va umuman milliy iqtisodiyotni boshqarishni muhim mexanizmi. Litsenziyalash orqali davlat

eksport va import xajmini belgilaydi yoki umuman ularga yo'l qo'ymaydi.

Litsenziyalash – juda ham samarali iqtisodiy-xo'jalik mexanizmi. Ayni inqiroz davrida bu mexanizm juda ham zarur. Masalan, 1929-1933 yillarda jahon inqirozi davrida litsenziyalash proteksionizm siyosatining samarali vositasi sifatida juda ham rivojlangan. Protectio – lotincha, himoya qilish – davlatning siyosati – milliy iqtisodiyotni xorijiy raqobatchilardan himoya qilish yo'li bilan olib borilayotgan siyosat.

Ilmiy-tadqiqot sohasida litsenziyalash – bu kashfiyotchidan tashqari boshqa shaxs yoki tashkilot uchun ixtiro, tajriba, ishlab chiqarish sirlari, savdo markasi va h.k.-dan foydalanishi uchun beriladigan ruhsat.

Litsenziyalash – bu tijorat kelishuv orqali amalgam oshiriladi va tegishli shartnoma asosida rasmiylashtiriladi.

Ushbu shartnomada patent egasi litsenziar deb ataladi. Litsenziar boshqa shaxsga o'zining patentga bo'lgan huquqini qisman yoki to'lig'icha berishi mumkin. Huquqlarni qabul qiluvchi shaxs litsenziat deb ataladi.

Ko'pchilik holatlarda ma'lum bir litsenziyaning zamirida bitta emas, balki qator bir biriga bog'liq bo'lgan patentlar yotadi.

Ba'zi bir hollarda shartnoma ishlab chiqarish sirlarni o'zlatish (berish) to'g'risida kelishuvlari bo'lishi mumkin (know-how). Va ushbu know-how patent bilan himoyalangan bo'lishi mumkin.

Litsenziya faqat ishlab chiqarishni tashkil qilish emas, balki savdo belgidan foydalanish uchun ham berilishi mumkin, malum bir mahsulotni realizatsiya qilish maqsadida. Odatda litsenziyaning asosiy shartlaridan biri – bu ma'lum bir sohada qo'llanilishi mumkinligi.

Patent litsenziyalari uch hil bo'ladi:

1) Oddiy Litsenziya – foydalanuvchiga shartnoma doirasida tegishli huquqlardan foydalanish imkoni beradi. Shu bilan birga patent egasi, Litsenziya beruvchi parallel ravishda o'zi foydalanishi mumkin yoki boshqa foydalanuvchilarga tegishli huquqini berishi mumkin.

2) eksklusiv Litsenziya – litsenziat va faqat bu shaxs litsenziyadan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Va shu borada litsenziar boshqalarga usha huquqini bermaydi. Undan tashqari o'zi ham Litsenziya va patentni (ixtironi) ishlatishga huquqini amalgam oshirmaydi.

3) to'liq litsenziya litsenziatga faqat va faqat shaxsan, individual barcha huquqlarni beradi.

Oddiy litsenziya ommabop tovarlarni ishlab chiqarish uchun beriladi. Eksklusiv Litsenziya maxsus tovarlarni ishlab chiqarish uchun beriladi.

ITT sharoitlarida zamonaviy tezkor jarayonlari – texnika va texnologiyalarning tez-tez eskirishi litsenziyalarga oid shartnomalar amal qilish muddatlari qisqarishiga olib kelmoqda.

Litsenziyalarni sotish xajmi va litsenziyalar bozori jadal rivojlanmoqda, chunki juda ham katta iqtisodiy foyda bermoqda. Asosiy sababi – litsenziya qo'shimcha sarmoya talab qilmaydi. Litsenziyani sotib oluvchi ham manfaatdor, chunki tayyor litsenziyani sotib olgani orqali vaqtni va resurslarni tejaydi.

Sertifikatlashtirish deb, mahsulot (buyum, mol) yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyatga aytiladi.

“Sertifikatlashtirish” iborasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “to'g'ri qilingan” degan ma'noni bildiradi. Mahsulot, xizmat va jarayonning to'g'ri qilinganligi yoki bajarilganligi ularning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishini ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobebo'lmagan uchinchi tomon yordamida tekshirib orqali aniqlanadi. Shuning uchun ham me'yoriy hujjatlar talablariga to'liq mos keladigan mahsulot, xizmat yoki jarayon sertifikatlashtirishdan bimalol o'tadi. Sertifikatlashtirishdan asosiy maqsad – mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning me'yoriy hujjatlar talablari mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ishonch hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham korxonalarning mahsulotlari va sifat tizimlarining

sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi milliy mahsulotimizni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonuni va O'z RST 5,0:1998 (O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar)da mahsulot, xizmat, jarayon yoki boshqa ob'yektlarni sertifikatlashtirish bo'yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari hamda sertifikatlashtirishda qatnashuvchi tomonlarning huquqlari, vazifalari va javobgarliklari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida mahsulot (xizmat)ni sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish- bu sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulotning standartlardagi majburiy taablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

Mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonuni asosida ishlab chiqilgan. Ushbu qonun xavfsizligini tasdiqash talab etiladigan mahsulotlar, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini Respublika hududiga olib kelish va ularni chetga chiqarish qoidalarini bilgilaydi hamda bu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi va bu ro'yxatda sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning kodi k'rsatiladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushiniladi.

Mahsulot, xizmat va jarayonlardan tashqari korxona yoki tashkilotning ishlab chiqarish sharoitlari ham sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish – bu sertifikatlashtirish idorasi yoki boshqa maxsus vakolatga ega bo'lgan idora tomonidan ma'lum mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur va yetarli sharoitlar mavjudligini, unga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlarda

belgilangantalablarning barqarorligi va sertifikatlashtirishda nazorat ostiga olinishini ta'minlashning rasmiy tasdog'idir.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish deganda, tizimning xalqaro va milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqalitasdiqlash haqidagi faoliyat tushiniladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish ta'minlovchining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishiga to'liq ishonch hosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi qoshidagi davlat standartlashtirish, metrologiya va sretifikatlashtirish markazi- O'zdavstandart O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida ko'rsatilganidek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idorasi hisoblanadi va u quyidag yo'nalishda o'z faoliyatini olib boradi:

- sertifikatlashtirish sohasida davlatsiyosatini amalga oshirish, sertifikatlashtirishni o'tkazishish bo'yicha umumiyqoidalar o'rnatish (belgilash) va ular haqida rasmiy axborotlarni matbuotda bosib chiqish;

- respublikamizda sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasining Vazirllar mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqoro standartlashtirish tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qilish va standartlashtirish natijalarini o'zaro tan olishto'g'risida bitimlar tuzish, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikqilish va O'zbekiston Respublikasini ushbutashkilotlar faoliyatida qatnashishlarini ta'minlash;

- Majburiy sertifikatlashtirish lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini belgilash;

- Bir turdagimahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasi bo'yicha nazorat qilish idoralari hamda ekspert-auditorlarni akkreditlash;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifatni boshqarishtizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sifat bo'yicha ekspertauditorlarning Davlat reestrini yuritish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va ularni tayyorlashda ishlatiladigan jihozlarning davlat ro'yxatidan o'tkazish;

- Sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish hamda sinov laboratoriyalari va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratiniamalga oshirish;

- Muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini amal qilishini bekor qilish va to'xtatish, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar (organlar)-ning akkreditlanganligi haqidagi guvohnomalarini bekor qilish, sertifikatlashtirish bo'yicha qoniniy me'yorlarni buzganligi uchun sinov laboratoriyalari (markazlari)ning faoliyatini to'xtatib qo'yish.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha O'zdavstandart tomonidan akkreditlangan idoralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini tuzish va ularning amal qilishini ta'minlash;

- Sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;

- Milliy muvofiqlik yoki chet el mamlakatlarining muvofiqlik sretifikat belgilarini berish va rasmiylashtirish;

- Sertifikatlashtirilgan mahsulo ustidan tekshiruvlarni amalga oshirish;

- Respublikada sertifikatlashtirish milliy tizimining talablariga asosan sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlari va majburiy sertifikatlashtirish uchun me'oriy hujjatlarni belgilash;

- Sertifikatlashtirish, akkreditlash va sinovlar bo'yicha tizimining davlat ro'yxatini olib borish;

- Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblarini aniqlash.

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublika hududlarida sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora (organ) vazifalarini standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish metrologik xizmatlar (SMSMX) bajaradi. Bu xizmatlar O'zdavstandart vakolati asosida quyidagi ishlarni bajaradi:

- mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar va ularni yetkazib beruvchilar, ta'minlovchilarga) ga sertifikatlashtirish qoidalari to'g'risida rasmiy ravishda xabar berish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan davlat tekshiruv va nazorati hamda ular tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning inspeksional tekshiruvini amalga oshirish;

- ushbu hududda sertifikatlashtirilgan mahsulotlar peestrini yuritish;

- O'davstandart topshirig'iga asosan sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash bo'yicha komissiyalar tashkil qilish, ularning ishi, idora va laboratoriyalari (markazlari) hamda inspeksion tekshiruvlarida ishtirok etish.

Yuqorida ko'satib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zdavstandart ilmiy-tadqiqot, sinov tashkilotlari, ilmiy-texnik va jamoa tashkilotlari hamda iste'molchilar jamiyatlarini jalb etadi.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi - bu sertifikatlashtirish bo'yicha o'zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib qoidalariga ega bo'lgan va davlat miqiyosida amal qiladigan tizim. Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi to'liq shakllangan va u amalda unung qoida va tartiblari ISO/MEK va ISO xalqaro standartlari, EN 4500 Yevropa standartlari hamda sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi boshqa xalqaro me'yorlar va qoidalarga muvofiq tuzilgan. Bunday choralar, o'z navbatida sertifikatlashtirish idoralari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini chet mamlakatlarda ham tan olinishini

ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalarini va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi Qonun birgina respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga emas, balki chetdan keltirilgan mahsulotlar uchun ham taaluqlidir.

Sertifikatlashtirish sohasidagi asosiy atama va tushunchalarning mazmuni, respublikada sertifikatlashtirish jarayonlarini o'tkazish tartib va qoidalarini belgilash, sertifikatlash milliy tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi esa, inson hayoti va sog'lig'i hamda atrof-muhitni turli zararli ta'sirlardan saqlash hamda tovarlar o'zaro almashuvi va muvofiqligi bo'yicha iste'molchilar manfaatini himoya qilish, xalqaro tijorat ishlarida to'siqlarni bartaraf etish va milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Shularni e'tiborga olgan holda, sertifikatlash milliy tizimi quyidagi masalalar bo'yicha ish olib boradi:

- Sertifikatlashtirish faoliyatida ishlatiladigan va me'yoriy hujjatlarda qo'llaniladigan asosiy atama va tushunchalarning nomlari va mazmunini belgilash;
- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha umumiy qoida va tartiblarini belgilash;
- Sertifikatlashtirish jarayonida qo'llaniladigan me'yoriy va rahbariy hujjatlarni belgilash;
- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlari) ning akkreditlash qoidalarini belgilash;
- Sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruvi idoralari (organlari) bilan o'zaro hamkorlik qilishni tashkil etish.

Sertifikatlashtirish mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi. Muvofiqlik turlari esa, O'zbekiston sertifikatlashtirish davlat tizimida belgilangan.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) o'tkazadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, sertifikatlashtirishning vazifalari ham uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun zararli yoki xavfli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;
- milliy va qo'shma korxonalar hamda tadbirkorlarning xalqaro tijorat ishlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;
- iste'molchini mahsulot ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi)ning noinsofligidan himiya qilish;
- iste'molchilarning talablarida ko'rsatilgan talablarni mahsulot sifati orqali ta'minlash.

Mahsulot, xizmat va jarayonning to'g'ri qilinganligi yoki bajarilganligi ularning me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos kelishini ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan uchinchi tomon yordamida tekshirish orqali aniqlanadi. Shuning uchun ham me'yoriy hujjatlar talablariga to'liq mos keladigan mahsulot, xizmat yoki jarayon sertifikatlashtirishdan bemalol o'tadi. Sertifikatlashtirishdan asosiy maqsad – mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning me'yoriy hujjatlar talablari mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ishonch hosil qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham korxonalarning mahsulotlari va sifat tizimlarining sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi milliy mahsulotimizni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Sertifikatlashtirish milliy tizimi- bu sertifikatlashtirish bo'yicha o'zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib qoidalariga ega bo'lgan va davlat miqyosida amal qiladigan tizim. Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi to'liq shakllangan va u amalda uning qoida va tartiblari ISO/MEK va ISO xalqaro standartlari, EN 4500 Yevropa standartlari hamda sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi boshqa xalqaro me'yorlar va qoidalarga muvofiq tuzilgan. Bunday choralar, o'z navbatida sertifikatlashtirish

idoralari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini chet mamlakatlarda ham tan olinishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi Qonun birgina respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga emas, balki chetdan keltirilgan mahsulotlar uchun ham taaluqlidir.

Har bir korxona (kompaniya) yoki tashkilot o'zining sifatli mahsulot ishlab chiqarish yoki yaxshi xizmat ko'rsatishdan manfaatdor bo'ladi, chunki bu bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir. Shuningdek, har qanday sifatli mahsulot yoki xizmat quyidagi talablarga muvofiq kelishi kerak:

- iste'molchining ma'lum bir ehtiyojni qondirishi;
- eksplutasiya qilinish maqsadiga muvofiq kelishi;
- iste'molchilarning talablarini to'liq qondirish;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari va harakatdagi qonun-qoidalar hamda jamiyatning boshqa talablariga javob berishi;
- iste'molchilarga raqobat narxida taklif qilinishi;
- korxona tomonidan foyda olinishini ta'minlash va boshqalar.

Har qanday ishlab chiqarish korxonasi sifatni doimo ta'minlash va unga samaraliroq rahbarlik qilish maqsadida umumiy tizimga ega bo'lishi shart va u korxona sifatni boshqarish bo'yicha belgilangan maqsadga erishish uchun xizmat qilishga qaratilishi kerak. Sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimining mazmuni esa korxona faoliyati yo'nalishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot assortimentining murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Korxona yoki kompanoyaning sifat tizimi sifatga umumiy rahbarlik qilish faoliyatining asosini tashkil etadi va bu asos korxona yoki tashkilotning sifat bo'yicha siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida qo'llaniladi va u boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tizim deganda, bir-biri bilan o'zaro munosabatda va bog'liq bo'lgan hamda ma'lumbir butunlikni (umumiylikni) hosil qiluvchi elementlar to'plami tushuniladi

yoki tizim – bu umumiy belgilari bo'yicha birlashgan qandaydir elementlar yoki birliklar majmuidir.

ISO 8402-86 (Kachestvo. Slovar.) xalqaro standartida “sifat tizimi” quyidagicha ta'riflanadi: Sifat tizimi- bu sifat bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlaydigan tashkiliy tizimlar, ma'suliyatlar, ishlar (vazifalar), jarayonlar va resurslar majmuidir.

Yana boshqa bir talqinda sifat tizimi – bu birinchi navbatda korxonada iste'molchiga kerak bo'lgan mahsulotni etkazib berish yoki tashkilotga xizmat ko'rsatishiga imkon yaratib beruvchi ishlarni tashkil etishdagi muayyan usuldir.

Sifat tizimini sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun korxona sertifikatlashtirish idorasiga buyurtmanoma va buyurtmanomaga qilingan ilova yuboladi. Ilobada sifat bo'yicha qo'llanma, sifat haqidagi axborot, reklamalar haqidagi ma'lumotlar, muvofiqlik sertifikatini va shunga o'xshash hujjatlar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish idorasining iltimosiga ko'ra korxona sifat tizimi haqida boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etishi mumkin.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish quyidagi ikki asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

- sifat tizimini dastlabki tekshirish (ISO ga aynan o'xshashlik audit);
- sertifikatlashtirish auditini va muvofiqlik sertifikatini berish.

Sifat tizimini dastlabki tekshirish (baholash) bosqichi sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni keyinchalik o'tkazilishini maqsadga muvofiqligini aniqlash va sifat tizimini audit dasturini ishlab chiqish uchun amalga oshiriladi. Auditni o'tkazish uchun esa tekshiruv rahbari (bosh ekspert- auditor) boshqaradigan komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga sifat tizimlarini sertifikatlashtirishdan o'tkazish guruhiga attestatsiyalangan ekspert-auditorlar ham kiradi.

Sifat tizimini dastlabki baholanishi (tekshirish) sertifikatlashtirish auditini o'tkazish haqidagi bayonnoma (qaror) hamda so'rovchi (arizachi) va

sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida shartnoma tuzilishi bilan yakunlanadi. Audit dasturi audit boshlanishidan oldin so'rovchi (arizachi) bilan kelishib olinadi.

Ikkinchi bosqich yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun va qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish korxona yoki tashkilotga quyidagi afzalliklarni beradi:

- samarali boshqarish ta'minlanadi;
- mahsulot sifatining barqarorligiga rahbariyatda ishonch hosil bo'ladi;
- iste'molchilardan mahsulotni qaytib kelishi shikoyatlar kamayadi;
- korxona xodimlariga qiziqarli barqaror va ko'p haq to'lanadigan ish shakllanadi;
- korxona obro'i va davlat buyurtmasi olish istiqbollari ko'payadi;
- korxonaning raqobatbardoshligi oshishi va eksport potentsiali rivojlanadi;
- ishlab chiqarishni ko'paytirish, sarf-xarajatlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hisobiga korxona daromadini jiddiy o'sishi va boshqalar.

Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish shaklida bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi milliy standartlashtirish tizimida ikki xil sertifikatlashtirish turlari ishlatiladi: majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Mahsulotlarni (xizmatlarni) u yoki bu turdagi sertifikatlashtirishga mansubligi, ularning tashqi muhit, inson salomatligi va mol-mulkiga zararli ta'siri asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham atrof-muhit, inson sog'lig' va uning mol-mulkiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulot (xizmatlar) albatta majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi, qolgan mahsulotlar esa ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 avgustdagi 409-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududiga keltiriladigan va uning hududidan

chetga chiqariladigan, xavfsizligini ta'minlash uchun majburiy sertifikatlashtirish kerak bo'lgan mahsulotlar ro'xatini, sertifikatlashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan mahsulotlar, shu jumladan sertifikatlashtirish kerak bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini Respublika hududiga kiritish yoki ularni respublika hududidan olib chiqib ketish tartib-qoidalarini ko'rsatib berilgan. Shuningdek ushbu qaror bilan majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlar ro'yxati ham tasdiqlangan.

Ushbu qarorga asosan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlari majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi.

Milliy mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qoida va tartiblari O'zbekiston Respublikasining rahbariy hujjati (Uz RH 51-062-97. O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o'tkazish tartibi. Umumiy talablar)da belgilab berilgan.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish huquqiga ega bo'lgan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulot, jarayon yoki xizmatning me'yoriy hujjatlarda majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushiniladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasida ko'rsatilganidek, har qanday mahsulot yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbusi bilan uning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Yuqorida qayd qilinganidek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish tizimi mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirishdan tashqari ixtiyoriy sertifikatlashtirilishi ham amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar ta'minlovchi (tadbirkor, bazaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchining shaxsiy tashabbusiga ko'ra ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki iste'molchining tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushiniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va o'zini sifat tizimiga ishonch hosil qilishdan iborat. Shuningdek, ixtiyoriy sertifikatlashtirish o'ziga xos reklama vazifasini ham bajaradi.

Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish qonun-qoidalari va tartiblari ham mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qonun-qoidalari va tartiblariga o'xshash bo'lib, ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tgan mahsulotga muvofiqlik sertifikati beriladi.

Sertifikatlashtirish tartib va qoidalarini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimi O'zdavstandart bilan kelishilgan holda akkreditlangan idoralar tomonidan o'rnatiladi (belgilanadi).

Chet el mamlakatlarining sertifikatlashtirish amaliyoti va tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlar xavfsizligini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan ishlar butun jahon miqiyosida amalga oshiriladi. Mahsulot xavfsizligini ta'minlash esa, mahsulotni sertifikatlashtirish orqali yoki sertifikatlarni tan olish hamda respublikadan tashqarida tovar ishlab chiqaruvchilarga tovarlari uchun berilgan tashqi muvofiqlik guvohnomalari orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda turli idoralar (tashkilotlar) tomonidan bajariladigan mahsulot xavfsizligini tekshirishning ko'plab proseduralari va uslublari mavjud. Bularga standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati, sanitariya-gigiena nazorati, mahsulotni mahkama tekshiruvi va uni qabul qilishi, milliy iste'molchi tashkilotlar tomonidan bajarilayotgan mahsulot sifati va xavfsizligini tekshirish bo'yicha faoliyatlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Chet mamlakatlarda xavfsizlik va xususiy biznesning paydo bo'lgan an'analari sohasida yaxshi rivojlangan qonunchilikning mavjudligida ishlab

chiqarilayotgan mahsulot xavfsizligi, uni tekshirish, sinash va yaroqsizlantirish (utilizasiya) javobgarligi ishlab chiqaruvchiga yuklatilgan. Davlatning tekshiruv idoralari yalpi tekshiruvlarni amalga oshirmaydi, ularfaqat jabrlangan tomon yoki uning vakilini murojati bo'yicha noinsof ishlab chiqaruvchilarga nisbatan sud tartibida zarur choralar qo'llaydi. Ko'plab chet mamlakatlarining qonunchiligi mahsulotning muayyan (mavjud) turlari va guruhlariga bo'lgan talablarni belgilovchi alohida qonunlardan tashkil topgan. Masalan, sertifikatlashtirish bo'yicha fransuz assotsiatsiyasi (AFNOR)ning ma'lumotlariga qaraganda, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) a'zo mamlakatlarida va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEESA) da 500dan ortiq buyumlar sertifikatlashtiriladi. 300dan ortiq sertifikatlashtirish tizimlari va 700dan ortiq sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ko'pdan buyon va keng miqiyosda qo'llanilayotgan sertifikatlashtirish o'z mamlakatlari va o'z bozorlariga milliy standartlar yoki mamlakatda amal qilayotgan boshqa texnik me'yoriy hujjatlarga muvofiq kelmaydigan mahsulotlarni kirib kelishdan himiya qiladi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, chet mamlakatlarida bitta mahsulot uchun mo'ljallangan standartlar va boshqa turli texnik me'yorlar bir-biridan farq qiladi, natijada ular xalqaro savdoda texnik to'siqlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham jahon bozorida raqiblarni huquqli sherikchiligini ta'minlash uchun ularni muvofiqlashtirishni taqazo etadi.

Barcha chet mamlakatlarida sertifikatlashtirish idoralaridan tashqari ularning chegaralarida joylashgan maxsus xizmatlar ham mavjud. Bu xizmatlar chetdan olib kiritilayotgan mahsulotning veterinariya (chorva va chorvachilik mahsulotlari), tez buzuluvchi mahsulotlar, alohida kimyoviy moddalar, transport vositalarini tekshiruv kabi tekshirish turlarini amalga oshiradi. 1947 yildan boshlab tariflar va savdo bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan bosh bitim (TSBB) jahon

savdo qoidalarini ishlab chiquvchixalqaro tashkilot hisoblanadi. 1993 yilning dekabrda TSBB tarkibidagi Urugvay ko'p tomonlama savdo muzokaralarida TSBBni jahon savdo tashkiloti (JST)ga o'zgartirish to'g'risida taklif kiritdi va uni o'zgartirishlar bo'yicha qaror qabul qildi.

Hozirgi kunda 25 davlat ushbu tashkilot a'zosi hisoblanadi, ularning umumjahon tovar oborotini 90 foizini tashkil qiladi. Undan tashqari 20taga yaqin davlatlar Bosh bitimga qo'shilish arafasida turibdi.

Sinov tashkilotlarini o'zaro tan olish va akkreditlash sohalarida xalqaro darajada davlatlar orasidagi hamkorlik 1977 yilda chiqarilgan sinov laboratoriyalarni akkreditlash bo'yicha xalqaro konferensiya (ILAK) doirasida amalga oshiriladi.

ILAK- bu xalqaro forum bo'lib, uning vazifasiga laboratoriyalar (markazlar)ni akkreditlash mezonlarini xalqaro miqiyosda uyg'unlashtirish, xalqaro savdoda texnik to'siqlarni bartaraf qilishga ko'maklashish, xalqaro va milliy darajada amal qilinayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar (organlar) bilan faol hamkorlik qilish kiradi.

Demak, har qanday ishlab chiqarish korxonasi sifatni doimo ta'minlash va unga samaraliroq rahbarlik qilish maqsadida umumiy tizimga ega bo'lishi shart va u korxona sifatni boshqarish bo'yicha belgilangan maqsadga erishish uchun xizmat qilishga qaratilishi kerak. Sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimining mazmuni esa korxona faoliyati yo'nalishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot assortimentining murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi milliy standartlashtirish tizimida ikki xil sertifikatlashtirish turlari ishlatiladi: majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Mahsulotlarni (xizmatlarni) u yoki bu turdagi sertifikatlashtirishga mansubligi, ularning tashqi muhit, inson salomatligi va mol-mulkiga zararli ta'siri asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham atrof-muhit, inson sog'lig' va uning mol-mulkiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulot (xizmatlar) albatta majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladi, qolgan mahsulotlar esa ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtiriladi. Chet mamlakatlarda xavfsizlik va xususiy biznesning paydo

bo'lgan an'analari sohasida yaxshi rivojlangan qonunchilikning mavjudligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot xavfsizligi, uni tekshirish, sinash va yaroqsizlantirish (utilizasiya) javobgarligi ishlab chiqaruvchiga yuklatilgan. Davlatning tekshiruv idoralari yalpi tekshiruvlarni amalga oshirmaydi, ular faqat jabrlangan tomon yoki uning vakilini murojati bo'yicha noinsof ishlab chiqaruvchilarga nisbatan sud tartibida zarur choralar qo'llaydi. Ko'plab chet mamlakatlarining qonunchiligi mahsulotning muayyan (mavjud) turlari va guruhlariga bo'lgan talablarni belgilovchi alohida qonunlardan tashkil topgan.

III-БОБ БЎЙИЧА ХУЛОСА

1. Milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi turli soha va tarmoqlarning nisbatini namoyon etib, ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shakllanadi. Mazkur tuzilmaga fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va boshqa omillarning ta'siri ostida ro'y beruvchi miqdoriy va sifat o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi. Milliy iqtisodiyotning mutanosibliklari eng avvalo yuqorida aytib o'tilgan omillar ta'siri ostida ob'ektiv tarzda shakllanadi. Mazkur mutanosibliklarning tarkib topish jarayoni ayni paytda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarish va siljishlar, ijtimoiy ishlab chiqarish hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga turtki beradi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri yangicha yondoshuvini taqozo etadi. Uning xususiyati va tamoili ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni markazlashtirilmagan tashkil qilinishidir. Bunda asosiy etibor qonunchilikda belgilab berilgan o'z – o'zini tashkil qilish tamoiliga qaratilishi lozim bu esa boshlang'ich tadqiqot jamoasi rolining o'zgarishiga olib keladi. Ilim – fanning tashkiliy tarkibidagi bosh bo'g'in institut emas balki kankret muammoni ishlab chiquvchi tadqiqot jamoa bo'lishi kerak.

3. Mintaqaning rivojlanishining innovatsion stratigiyasi bozorlar va texnologiyalarni shakillantirish maqsadida yuqori keskinlik darajasiga ega innovattsiyalarini ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutudi.

Investitsiya – innovatsiya strategiyasi murakkab tashkiliy jarayon bo'lib, har tomonlama tavakalchilik bilan bog'liqdir. Mintaqaning ushbu strategiyasini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot firmalari va bo'linmalarning xizmatlaridan foydalanishdan turli variantlari vinchur strategiya deb ataladi. Ushbu usulning o'ziga xosligi shundan iboratkiy, u kapitalning turli shakillari: aksionerlik, ssuda, tadbirkorlikning uyg'unligidan iborat.

XULOSA

O'zbekistonda amalgam oshirilayotgan tarkibiy islohotlarning iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati shundaki, ular mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini qayta ishlash, innovatsiya va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun sharoit yaratish kerak.

Dissertatsiyamizda o'tkazilgan tadqiqotlar hozirgi zamon jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqishga olib keldi:

- Modernizatsiya, tarkibiy o'zgarishlar, diversifikatsiya – bir biri bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy xodisa va ilmiy tushunchalardir;
- O'zbekistonda va shu jumladan Samarqand viloyati va shahrida modernizatsiyalash ustuvor yo'nalish va choralaridan eng asosiylaridan biri korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik-texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;
- Iqtisodiyotning real sektori resurs bazasini kengaytirish va investitsion faollik o'sishini taminlash;
- Elektro–energetika sohasini moderizatsiya qilish;
- Kichik biznesning rivojlanishini qo'llab – qo'vvatlashni kuchaytirish, aholi bandligiga va yangi ish o'rinlarni tashkil etishga ko'maklashish kabi chora – tadbirlarni qamrab oladi;
- Vatanimiz moliya bozoriga spikulyativ kapital kirishiga yo'l qo'ymasdan xorijdan tug'ridan – tug'ri sarmoyalarni jalb qilish;
- Iqtisodiyotning ustuvor sohalarni moliyalashtirishda davlat kafolati ostida olingan kreditlarni faqat uzoq muddatlarga ya'ni 20 yildan 40 yilgacha hamda imktiyoqli stavkalarda, xususan 0,5 foizdan 2 foizgacha bo'lgan miqtorda jalb qilish;
- Sotsial iqtisodiyot shakllanishi sharoitlaridan nomoyon hududda iqtisodiy islohatlarning borishini baholash va tahlil etishdagi bosh vazifa –

iqtisodiyotni isloh qilish buyicha tadbirlarning ijtimoiy va xo'jalik yuritish jarayonlariga ta'siri va o'zaro aloqadorliklarini aniqlash hisoblanadi.

- Respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohatlar o'z miqyosi va o'zgartirishlar buyicha xo'jalik yuritishda yangicha yondashuvlar va mehanizmlar zarurligini talab etadi.

- Hududlarni boshqarishda iqtisodiy usullarni rivojlantirishdan asosiy maqsad – yirik mintaqaviy sotsial – iqtisodiy muammolarni hal etishni amalda ta'minlash va shu asosda samarali mintaqaviy siyosat o'tkazishni yaxshilashdir.

- Mintaqalarning iqtisodiy va sotsial rivojlanishi yunalishlarni eng yuqori darajada asoslash va uning o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq hisobga olish uchun, fikrimizcha muayyan vazifa yoki muammolar eg'indisi nuqtainazaridan mintaqaga har tomonlama chuqur ta'rif beradigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarning butun tizimini e'tiboriga olish lozim.

- Turizimni rivojlantirish va sanoatni jonlantirish bizning investitsiya-innovatsion strategiyamiz bo'lishi shart.

- Shunday qilib, respublika mintaqalarning yanada rivojlanishi faoliyat turlari raqobatbardoshligini oshirishga yunaltilgan investitsiya – innovatsion strategiyasini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, undan mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar raqobat afzalliklariga ega. Ushbu vazifani hal qilish uchun mintaqalarning raqobat salohiyatini ob'ektiv baholash va uni iqtisodiyotni leberallashtirish va modernizatsiyalash sharoitida rivojlantirishga ko'maklashish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tarkibiy islohotlar uch blokda amalga oshirilishi zarur:

Birinchi blok – iqtisodiy erkinlikni kuchaytirish: iqtisodiyotga aralashuvni kamaytirish; xo'jalik sub'ektlari uchun bir xil raqobat muhitni yaratish; soliq yukini kamaytirish va davlat xarajatlarini kamaytirish.

Ikkinchi blok – ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish: uy-joy kommunal xo'jaligi, pensiya tizimi, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam va mehnat munosabatlari.

Uchinchi blok – ma'muriy islohotlar: markaz va mintaqalar o'rtasidagi munosabatlarni isloh etish.

Shunday qilib, iqtisodiyotda amalgam oshiriladigan tarkibiy islohotlar investitsion faoliyat shart-sharoitlarini yaxshilaydi va mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rasmiy materiallar

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010. 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: Iqtisodiyot huquq dunyosi, 2014.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi Qonuni. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi qonuniga sharhlar. – T.: Sharq, 2012. 375 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Barkamol avlod yili Davlat dasturi to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010, 5-son. Zakoni Respubliki Uzbekistan.
- 2.2. Respublika Uzbekistan: Zakoni i ukazi. T.: Uzbekistan, 2012. 382 s.
- 2.3. Rasporyajenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan "Ob obrazovanii komissii po razrabotke Programmi po formirovaniyu edinoy kompleksnoy strategii territorial'nogo razvitiya Uzbekistana na 2007-2011 godi" № F-2482 ot 20.04.2006.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy xujjatlar

- 3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholi ish bilan ta'minlanganligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi 42-sonli Qarori, 2002-yil 31-yanvar.
- 3.2. Postanovlenie Kabineta Ministrov Respubliki Uzbekistan "O programme modernizatsii i rekonstruktsii predpriyatnykh i xlopkovo-ochistitel'noy promishlennosti na 2007-2011 godi" 03.04.2007 g. № 70.
- 3.3. Postanovlenie Kabineta Ministrov RUz "O merax po uskorennoy realizatsii vajneyshix investitsionnykh proektov i zakupke tekhnologicheskogo oborudovaniya na 2009-2010 godi" ot 13.07.2009 g. № 197.

1.3.8. Postanovlenie Kabineta Ministrov RUz "O merax po regulirovaniyu deyatel'nosti SMEZ "Navoi" ot 09.04.2009 g. № 105.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

4.1. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. T.: "O'zbekiston", 2005. 144 b.

4.2. Karimov I.A. Nasha glavnaya tsel' - demokratizatsiya i obnovenie obshestva, reformirovanie i modernizatsiya strani: Doklad na sovmestnom zasedanii Zakonodatel'noy palati i Senata Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan, 28 yanvarya 2005 g. T.: "Uzbekistan", 2005. 64 s.

4.3. Karimov I.A. Zakreplyaya dostignutie rezul'tati, posledovatel'no stremit'sya k novim rubejam: Doklad na zasedanii Kabineta Ministrov RUz, posvyashennom itogam sotsial'no-ekonomicheskogo razvitiya v 2005 godu i vajneyshim prioritetam uglubleniya ekonomicheskix reform 2006 godu. T.: Uzbekistan, 2006.

4.4. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning xayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. T.: "Uzbekiston" NMIU, 2007. 200 b.

4.5. Karimov I.A. Uzbekistan: 16 let nezavisimogo razvitiya. Doklad Prezidenta na sovmestnom zasedanii Oliy Majlisa, Kabineta Ministrov, Apparata Prezidenta RUz, posvyashennom 16-oy godovshine Nezavisimosti Uzbekistana. T.: Uzbekistan, 2007.

4.6. Karimov I.A. Nasha glavnaya tsel' - neuklonno sledovat' kursom postroeniya svobodnogo obshestva i blagopoluchnoy jizni. Doklad Prezidenta na torjestvennom sobranii, posvyashennom 15-letiyu Konstitutsii RUz. T.: Uzbekistan, 2007.

4.7. Karimov I.A. Po puti modernizatsii strani i ustoychivogo razvitiya ekonomiki. T.16. - T.: IPTD "Uzbekistan", 2008. 280 s.

4.8. Karimov I.A. Mirovoy finansovo-ekonomicheskij krizis, puti i meri po ego preodoleniyu v usloviyax Uzbekistana. T.: Uzbekistan, 2009. 48 s.

4.9. Karimov I.A. Modernizatsiya strani i postroenie sil'nogo grajdanskogo obshestva - nash glavniy prioritet: Doklad na sovmestnom zasedanii Zakonodatel'noy palati i Senata Oliy Majlisa RUz, 27 yanvarya 2010 g. T.: Uzbekistan, 2010.

4.10. Karimov I.A. 2012 god stanet godom podnyatiya na noviy uroven' razvitiya nashey Rodini. T.: "Uzbekistan", 2012. S. 20.

5. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maqolalar to'plami

5.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: Mehnat, 2009.- 511 b.

5.2. Abulkasimov X.P. Prioriteti reformirovaniya i modernizatsii ekonomiki Respubliki Uzbekistan. - T.: Moliya, 2010. - 84 s.

5.3. Vaxabov A.V., dr. Inostrannie investitsii i modernizatsiya natsional'noy ekonomiki. - T.: Moliya, 2012. - 297 s.

5.4. Inlgart R. Modernizatsiya i postmodernizatsiya / Pod redaktsiey V.L.Inozemtseva. M.: Academia, 2009. S. 267-268.

5.5. Seytmuratov R.A. Modernizatsiya obshestva i strukturnoe obnovlenie ekonomiki Respubliki Uzbekistan //Monografiya. T., Gosudarstvennoe nauchnoe izd-vo "Natsional'naya entsiklopediya Uzbekistana", 2006. 140 s.

5.6. Vaxabov A.V., Jumaev N., Xoshimov E. Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi... T. "Akademnashr", 2009. 141 s.

5.7. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. T.: "Moliya", 2012.

5.8. Seytmuratov R.A. i dr. Sotsial'naya ekonomika /Ucheb. posobie. Saidov K.S., i dr. T.: "Uzbekistan", 2006. 392 s.

5.9. Seytmuratov R.A. i dr. Problemi povisheniya konkurentosposobnosti ekonomiki Uzbekistana: teoriya i praktika /Alimov R.A., Rasulev A.F. i dr. //Pod red. Gulyamova S.S. T.: Konsauditinform, 2006. 440 s.

5.10. Tuxliev N.T., Taksanov A. Natsional'naya ekonomicheskaya model' Uzbekistana. T.: Uqituvchi, 2000.

6. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

- 6.1. Djuraev T.T. Iqtisodiy resurslar doiraviy aylanishi jarayonining nazariy asoslari va samaradorligini oshirish omillari: Avtoref.dis. ...d-ra.ekon.nauk. T., 2007. 39 s.
- 6.2. Nabiev X.M. Mintakalarda neft' va gaz sanoatini innovatsiyaviy tarakkiy ettirish: Avtoref.dis. ...kand.ekon.nauk. T., 2008. 23 s.
- 6.3. Seytmuratov R.A. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari: Diss. ... d-ra ekon.nauk. T., 2012. 325 b.

7. Hisobotlar va statistik materiallar

- 7.1. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. – T.: O'zDavStatQ, 2014.
- 7.2. O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosiy ko'rsatkichlari.
- 7.3. Statisticheskij yejegodnik regionov O'zbekistana. 2011. –T.: Goskomstat O'zbekistana. 2012. - 130 str.
- 7.4. Statisticheskoye obozreniye O'zbekistana. 2006-2011.
- 7.5. O'zbekistan v sifrax. 2011. – Tashkent, 2012. – 64-88 str.

8. Internet sahifalariga havolalar

- 8.1. <http://www.antimon.uz>
- 8.2. <http://www.finance.people.com>
- 8.3. <http://www.tsue.uz>
- 8.4. <http://www.economicus.ru>
- 8.5. <http://www.bankreferatov.ru>
- 8.6. <http://www.economics.com>
- 8.7. <http://www.goldenpages.uz>
- 8.8. <http://www.imemo.ru>
- 8.9. <http://www.worldbank.uz.org>
- 8.10. <http://www.msu.ru>
- 8.11. <http://www.cemi.rssi.ru>
- 8.12. <http://www.chelt.ru>

- 8.13. <http://www.psu.ru>
- 8.14. <http://www.russ.ru/antolog/inoe/fadin.htm/>
- 8.14. <http://stat.uz>
- 8.22. <http://www.gov.uz>
- 8.23. <http://www.uzsci.net>
- 8.24. <http://www.infomine.com>
- 8.25. <http://www.cotton.org>
- 8.26. <http://www.uzwealthy.com/>
- 8.27. <http://www.worldbankgroup.org/>